

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Ijtimoiy-iqtisodiy fakultet dekani
_____ t.f.n., N. Dehqonov
20__y. “___” _____

5111600 – “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi” yo'nalishi
kunduzgi bo'lim 4-kurs MIG'-73-14 – guruh talabasi

OLIMOV DOSTONBEK FARHOD O'G'LI

**“O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan geosiyosiy
aloqalarida geografik omilning o'rni” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: t.f.n.dots. B.A. Talapov

“Himoyaga tavsiya yetilsin”
“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'lifi”
kafedra mudiri O.V. Mamatov
“___” _____ 2018 y.

Namangan-2018

MUNDARIJA

Kirish.....	3-6
1) Mavzuning dolzarbligi	
2) Mavzuning o'rganilganlik darajasi	
3) Mavzuning maqsadi, vazifalari	
4) Mavzuning ahamiyati	
5) BMIning tuzilishi	
I Bob. Markaziy Osiyo mintaqasining geografik o'rni: imkoniyatlar va muammolar.....	7-28
1.1. Markaziy Osiyo mintaqasining geografik va geosiyosiy jihatdan tadqiq qilinishi.....	7-21
1.2. Markaziy Osiyo davlatlarining demografik va ekologik muammolari.....	22-28
II Bob. Markaziy Osiyo davlatlarining integrasiyalashuvida geografik omillarning ahamiyati.....	29-57
2.1. Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari tomonidan suv resusrlaridan foydalanish va ekologik vaziyatni barqarorlashtish borasidagi hamkorlik.....	29-35
2.2. Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligida hududiy yaxlitlikning ahamiyati va istiqbollari.....	36-57
Xulosa.....	58-61
Foydalanilgan manba va adabiyotlar.....	62-66

Kirish

Mavzuning dolzarbliji. XXI asr bo'sag'asida Markaziy Osiyoning xalqaro hayotning mustaqil sub'ekti sifatida qayta tiklanishi, shubhasiz, olamshumul, o'zida muhim jarayonlarni ham ifodaluvchi, ham aks yettiruvchi hodisa bo'ldi.

Bu, Yevrosiyodagi geosiyosiy vaziyatni tubdan o'zgarishiga olib kelgan, jahon miqyosida avj olayotgan chuqur, tektonik siljishlar hosilasi bo'ldi. Markaziy Osiyoning jahon siyosati va iqtisodiyoti mustaqil sub'ekti sifatida tiklanishi, o'z navbatida, dunyo miqyosida ro'y berayotgan jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi muhim omilga aylandi. Yuzlab yillar davomida unutilgan, e'tibordan chetda qolgan o'lka bo'lib kelgan Markaziy Osiyo jahon hamjiyati tomonidan qayta kashf etildi. Dunyo bu minataqaning xalqaro iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, sivilizatsiyalararo aloqalarga qo'shilishiga katta umid bog'ladi. Ayni vaqtda, boshidanoq Markaziy Osiyo dunyo miqyosidagi barqarorlikka tahdid soluvchi xavf-xatarlar manbaiga aylanishi mumkinligi ham ayon bo'lib qoldi. Deyarli darhol, yangi «Katta O'yin» - mintaqadan tashqaridagi kuchlarning Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini o'rnatish uchun raqobatining turli variantlari va ko'rinishlari tahlil qilina boshlandi. Bu yerda mustaqil davlatlarning shakllanishi, hatto davlatchilik institutlari barqaror bo'lgan jamiyatlarni ham beqarorlashtirishga qodir bo'lgan, misli ko'rilmagan global xavflarning yuzagakelishi bilan bir vaqtda ro'y berdi. Boz ustiga, mintaqa terrorizmga qarshi jahon miqyosidagi urush markaziga aylanib qoldi. Bugungi kunda mazkur urushdagi muvaffaqiyat Markaziy Osiyoda voqealar qanday rivojlanishiga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi ayon bo'ldi. Hayotning o'zi, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlikshartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida qayd etilgan «sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil mamlakatlar qaysi yo'ldan borishlariga bog'liq»,¹ degan fundamental xulosasini tasdiqlagan edi.

¹ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тарақкиёт кафолатлари. - Тошкент, «Ўзбекистон», 1997. - 8-б.

Bularning barchasi mintaqaga jahon hamjamiyati tomonidan bo’lgan juda katta, jiddiy e’tiborning mislsiz ravishda kuchayishiga olib keldi.

Mavzuning o’rganilganlik darajasi. Markaziy Osiyonin sinchiklab o’rganishga intilish, bu yerda ro’y berayotgan murakkab jarayonlarni tushunib yetishga qiziqish ham kuchayib bormoqda. Ayni vaqtda, Markaziy Osiyo o’zi qanday mintaqa, degan savol tevaragida bahs hanuzgacha davom etmoqda. Tadqiqotchilar orasida mintaqaning tuzilishi, chegaralari, jahon sivilizatsion xaritasidagi o’rni yuzasidan yakdillik mavjud emas.

Mintaqaning geosiyosiy ahamiyatiga yangidan nazar tashlashga urinish natijasidir. Bu yerda asos qilib olinishi shart bo’lgan jihatni qayd etib o’tish lozim. Birinchidan, Markaziy Osiyo XX asr oxirida qayta vujudga kelgan bo’lsada, lekin u xalqlar hamjamiyatida o’z o’rnini birinchi marta izlayotgan butunlay yangi geosiyosiy tuzilma emas. Uning Yevrosiyodagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy-sivilizatsion ahamiyati, bu yerdagi asosiy mintaqalar bilan yaqin aloqalari chuqur ildizlarga ega bo’lib, ularning zamirida strategik ahamiyatga molik ob’ektiv omillar yotadi. Tarix dom-daraksiz g’oyib bo’lmaydi. Markaziy Osyoning hozirgi rivojlanish yo’llarini tushunib yetish uchun uni tarixiy nuqtai nazaridan tadqiq qilish juda muhimdir. Ikkinchidan, Markaziy Osyoning geosiyosiy ahamiyati uning Yevrosiyodagi muhim davlatlar va mintaqalarga chegaradoshligi bilan belgilanadi, degan fikr ancha keng tarqalgan. Lekin bu yondashuv hozirgi kun vaziyatiga to’g’ri kelmaydi. Bir qancha ijobiy omillarga va bu yerdan tarqalayotgan dunyo miqyosidagi xavflarga ko’ra, mintaqa, shubhasiz, o’ziga xos, mustaqil ahamiyatga molikdir. Eng muhimi, Markaziy Osiyoga u «sovet O’rta Osiyosi» deb nomlangan va qolgan dunyodan «temir pardasi» bilan ajratilgan davrdagi yondashuvlar nuqtai nazaridan qarash mumkin emas.

Bugungi kunga qadar Markaziy Osiyo haqida qator olimlarning qo’lyozma, va adabiyotlari nashr etilgan. Masalan, S.S. Safoevning “Markaziy Osiyodagi geosiyosat”¹ nomli kitobida “Markaziy Osiyo” atamasini kelib chiqishi va uning

¹ САФОЕВ С.С. МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ ГЕОСИЁСАТ. “ПАТЕНТ ПРЕСС” –Т.:2005 – 160 бет

qo'llanishi haqida ma'lumotlar keltirgan, "Markaziy Osiyo Umumiyl Bozorini shakllantirish mintaqada iqtisodiy hamkorlikning bosh yo'nalishi" kabi qator mavzular bo'yicha so'z yurutadi.

Jumaniyozov X.S. va Nigmanova U.B.ning "Geosiyosat asoslari" (uslubiy qo'llanma)¹ mintaqa mamlakatlarining Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy integratsiya yo'nalishlarini tahlil qilish, Markaziy Osiyoda doimiy ravishda jahondagi yirik davlatlarning geostrategik manfaatlarining mavjudligi ba'zi hollarda esa ular bir - birlari bilan kelishmasligining tub sabablarini ilmiy - nazariy jihatdan tahlil etish, Markaziy Osiyo mintaqasida ro'y bergan tarixiy jarayonlar haqida ma'lumotlar keltirilgan hamda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosatida tutgan o'ziga xos o'rnni o'rganish va uni geosiyosiy sub'ekt sifatidagi rolini yoritib bergenlar. Shu kabi boshqa A. Jalilovning YEVROSIYO STRATEGIK MUVOZANATI (geosiyosiy tahlil tajribasi)²da va B.H. Kalonov, Y.R. Buranovlarning «Markaziy Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyası» (uslubiy qo'llanma)³larida ham Marlaziy Osiyo mintaqasi haqida turli ma'lumotlar yoritilgan. Biroq Ushbu manbalarda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan geosiyosiy aloqalarida geografik omilning o'rni, Markaziy Osiyo davlatlarining integrasiyalashuvida geografik omillarning ahamiyati kabi mavzularga oid ma'lumotlar yoritilmagan, bitiruv malakaviy ishida esa yuqorida sanab o'tilgan manba va adabiyotlarda berilmagan ma'lumotlar keltirilgan.

Mavzuning maqsadi va vazifalari.

Mqasad: Mamlakatimizaning mustaqillikka erishganidan so'ng, xalqaro huquqning to'la qonli huquqli sub'ekti jahon davlatlari, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan keng ko'lamli geosiyosiy aloqalarida geografik omilning o'rnni yoritib berishdan iborat.

¹ Жуманиёзов Х.С. ва Нигманова У.Б. Геосиёсат асослари (услубий қўлланма) –Т.:2016 – 153 бет

² Жалилов А. ЕВРОСИЁ СТРАТЕГИК МУВОЗАНАТИ (геосиёсий таҳлил тажрибаси) –Т.:2006 – 89 бет

³ Б.Х. Калонов, Й.Р. «Марказий Осиё иқтисодий ва ижтимоий географияси» (услубий қўлланма)–Н.:2015 – 50 бет

Mazkur ishning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Markaziy Osiyonи nazariy jihatlarini geosiyosat nuqtai nazaridan atroficha o'rganish va tahlil etish;
- O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosatida tutgan o'rmini o'rganish va uni geosiyosiy sub'ekt sifatidagi rolini yoritish;
- xalqaro munosabatlarda geografik omilning geosiyosiy muammolarini o'rganish;
- Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy integratsiya masalalarini tahlil qilish hamda Ushbu jarayondagi O'zbekistonning startegik rolini aniqlash;
- Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan boy tabiiy zahiralar atrofida kechayotgan turli siyosiy va iqtisodiy manfaatlar to'qnashuvining ob'ektiv va sub'ektiv omillarini tahlil etish;
- O'zbekistonning jahon siyosati va halqaro munosabatlarining faol ishtirokchisi sifatida rolini o'rganish va tahlil etish.

Mavzuning ahamiyati. Mazkur ish natijalaridan Oliy o'quv yurtlarida "Siyosatshunoslik", "O'zbekistonda Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti", "O'zbekiston tashqi siyosati", "Xalqaro munosabatlar", "Qiyosiy siyosatshunoslik", "Siyosiy konfliktologiya", "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" kabi fanlarning mavzuga oid ma'ruzalarini o'qitishda, ijtimoiy gumanitar yo'nalishdagi fakultetlarda geosiyosat masalalarini o'rganishda qo'shimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

BMIning tuzilishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanylган manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I Bob. Markaziy Osiyo mintaqasining geografik o'rni: imkoniyatlar va muammolar

1.1. Markaziy Osiyo mintaqasining geografik va geosiyosiy jihatdan tadqiq qilinishi

Markaziy Osiyoning qaytadan vujdga kelishi insoniyat oxirgi o'n-o'n besh yil mobaynida boshdan kechirgan ko'plab dramatik o'zgarishlar va keskin burilishlar orasida, shubhasiz, eng muhimlari qatoriga kiradi. Mintaqqa asriy siyosiy yo'qlikdan qaytdi va yana bir bor xalqaro hayotning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ldi. Boz ustiga, u bugungi kunda jahon hamjamiyatining diqqat markazida turibdi¹.

«Markaziy Osiyo» atamasi birinchi marta taniqli nemis olimi, geograf Aleksandr fon Gumboldt tomonidan 1843 yili Parijda nashr etilgan uch jildli «Markaziy Osiyo. Tog' tizmalarini tadqiq qilish va iqlimlarni taqqoslash» asarida qo'llanilgan edi. Unda olim ichki sug'orish sistemasini va tog' tizmalarini o'rGANIB, Markaziy Osiyoni alohida, o'ziga xos mintaqqa sifatida ajratdi².

Shundan so'ng «Markaziy Osiyo» tushunchasi uzoq vaqt mobaynida, to so'nggi davrgacha geosiyosiy tushuncha sifatida emas, balki asosan tarixiy yoki geografik atama sifatida qo'llanilib kelindi. Boz ustiga, mintaqaning chegaralari ham, uning tarkibi ham aniq emas edi. Hatto uning nomi ham turli tarixiy davrlarda va xalqlarda har xil atalgan. Tarixan olganda, geografik omillar asosiy mezon bo'lib xizmat qilgan. Yunonlar va rimliklar uni «Transaksoniya» - Oxus daryosi (Amudaryo) ortidagi yer deb, xitoylar «G'arbiy o'lka» deb, arablar - «Movarounnahr» yoki ikki daryo oralig'i deb ataganlar. Eron «Turon»dan ajratilgan. Ba'zan mintaqqa etnolingvistik asosda «Turkiston» deb atalgan. Ba'zan yesa, u «Ichki Osiyo» (Inner Asia) deb kengaytirilgan tarzda talqin qilingan va unga Mo'g'uliston, G'arbiy Xitoy, Shimoliy Hindiston, Pokiston va Rossiya Sibirining janubiy qismi kiritilgan. Har qalay, YuNESKO tomonidan nashr etilgan «Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi» kitobida mintaqqa xuddi shunday

¹ САФОЕВ С.С. МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ ГЕОСИЁСАТ. «ПАТЕНТ ПРЕСС» –Т.:2005 – 11 бет

² Humboldt, A. de. Asie centrale. Recherches sur les chaines de montagnes et la climatologie compare. - Paris, 1843.

ko'inishga ega.¹ Ba'zan aksincha, sobiq SSSRda bo'lganidek, mintaqalari doirasi atigi to'rt respublika - Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonni o'z ichiga olgan «O'rta Osiyo» tushunchasiga qadar toraytirildi.

Markaziy Osiyo - Osiyo materigining ichki qismidagi tabiiy oblast. Maydoni 6 mln km². Shimol va g'arbiy chekkasi Mongoliya, XXR bilan RF o'rtasidagi davlat chegarasigacha bo'lib, sharqi Katta Shinjon, janubi yesa Tibet hududidagi Sangpo (Brahmaputra) daryosi va Hind daryosining yuqori qismi bilan o'ralgan. Markaziy Osiyo dengiz sathidan ancha baland joylashgan. Relefi kenglik bo'y lab cho'zilgan tog' tizmalari (Mongoliya Oltoy, Xangay, Xentey, Tyan-shan, Nanshan, Kunlun) va keng hamda ancha chuqur botiqlar (Jungoriya, G'arbiy Mongoliyadagi Katta Ko'llar soyligi, Tarim, Saydam)dan iborat. Ayrim joylarida mutlaq balandlik dengiz sathidan past (masalan, Turfon botig'i — 154 m). Qum va shag'alli baland tekisliklar, kichik tog' ko'p. Iqlimi hamma yerda keskin kontinental, cho'l iqlimi; yog'in kam, yiliga o'rtacha 100–200 mm, markaziy qismlarida 10–30 mm, chekkalarida 300–400 mm, janubiy-Sharqida, Tibet tog'larining chetlarida 1000 mm va undan ham ko'proq. Qishda antitsiklon ta'sirida qattiq sovuq bo'ladi, yanvarning o'rtacha temperaturasi —10°, —25°, eng past temperatura —50°, —52°. Tyanshan, Nanshan, Qoraqurum tog'larida muzliklar bor. Selenga, Irtish, Xuanxe, Yanszi, Brahmaputra, Hind, Mekong, Tarim, Xaydikgol, Kobdo, Tes, Manas, Urungu, Yedzin-gol daryolari tog'lardan boshlanadi. Chuchuk suvli eng katta Xubsugul oqar ko'lining maydoni 2620 km², eng chuqur joyi — 238 m. Markaziy Osiyoda Gobi, Takla-Makon, Alashan va boshqa cho'llar katta maydonni egallagan. Cho'l va chala cho'llar baland tog'largacha ko'tarilib boradi. Balandlik mintaqalari Nanshanning sharqiy qismida, Sharqiy Tyanshanning shimol yon bag'irlarida va Mongoliya Oltoyining janubi-g'arbiy yon bag'irlarida uchraydi. Xangay, Xentey tog'lari va Tibet tog'ligining janubiy-sharqiy chetlarida anchagina o'rmonlar bor.

¹ History of civilizations of Central Asia. - UNESCO Publishing, Paris, 1996.

Arnold Toynbi o'zining monumental «Tarixni anglash» asarida Oks Yaksart havzasi (ya'ni Amudaryo va Sirdaryo oralig'i), Yaqin Sharq kabi, yer yuzidagi barcha muhim yo'llar kesishadigan joy ekanligini, tabiiy shart-sharoitlar bu joylar xalqaro chorraxaga aylanishiga imkoniyat yaratganligini qayd etadi.¹ Shuning uchun ham jahonning barcha asosiy dinlari yoki shu yerda vujudga kelgan, yoki qudratli rivoj topgan, deb ta'kidlaydi Toynbi.

Markaziy Osiyo deganda, Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin mustaqillikka erishgan beshta musulmon respublikalar: Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston nazarda tutiladi. Sovetlar davrida bu hududga nisbatan O'rta Osiyo va Qozog'iston atamasi qo'llanilgan. Lekin, 1991 yilda mustaqillikka erishilgandan keyin ham Ushbu davlatlar, ham horijiy davlatlar Markaziy Osiyo atamasini qo'llay boshlashdi. 1992 yilda besh davlat rahbarlari rasmiy uchrashuvida Markaziy Osiyo atamasini qabul qilishdi. Hozirda, bu atama dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilingan. Aksariyat halqaro tashkilot va tadqiqot institutlarida, Markaziy Osiyo bo'limlari ochilgan. Lekin, geografik nuqtai nazardan yondoshilsa, Markaziy Osipyoga Afg'oniston, Mo'g'uliston va Xitoyning Uyg'ur viloyatlari ham kiradi. Bundan tashqari „Greater Sentral Asia“ yoki, Kengroq Markaziy Osiyo atamasi bor. Bu hududga, ba'zi siyosatchilar va tadqiqotchilar, Ushbu zikr etilgan davlatlardan tashqari, Eron, Ozarbayjon, Turkiya, hatto Hindistonning bazi qismlarini ham qo'shishadi.

Markaziy Osiyo siyosiy-geografik subregioni Yevrosiyo materigining ichkarisida joylashgan. 1991-yildan buyon mustaqil davlatlar sifatida rivojlanayotgan 5 ta sobiq ittifoqdosh respublika - Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonni birlashtiradi. Sanab o'tilgan davlatlar iqtisodiy-geografik o'rnining umumiy jihat shundan iboratki, birortasida ham Dunyo okeaniga bevosita chiqish imkoniyati yo'q, ya'ni beshtasining barchasi ichki kontinental mamlakatlar hisoblanadi. Jumladan, Qozog'iston Respublikasi dunyodagi jami 44 ta bunday geografik joylashuvga ega davlatlardan maydoni

¹ Тойнби. А.Дж. Постижение истории. Москва, Издательство «Прогресс», 1991. - С. 556-557

bo'yicha eng yirigi hisoblanadi. Subregionning o'rta qismida joylashgan O'zbekiston Respublikasi geografik o'rnining o'ziga xosligi esa, nafaqat o'zi, balki biror bir qo'shni mamlakatni ham dengizga tutash emasligidir. Bunday geografik xususiyat jahon mamlakatlari ichida, respublikamizdan tashqari, faqatgina G'arbiy Yevropadagi "mitti" davlatlaridan biri - Lixtenshteyn knyazligiga xos, hududi kattaroq davlatlardan yesa hech qaysi birida geografik joylashuvining bunday jihat mavjud emas.

Qozog'iston bilan Turkmaniston Respublikalari Kaspiy dengiziga tutash bo'lib, bu holat ikkala davlatning iqtisodiy-geografik o'rni, transport-geografik imkoniyatlari va tabiiy-resurs salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan farqli o'laroq, transport-geografik sharoiti ancha murakkab bo'lgan Tyanshan va Pomir baland tog'lari hududida joylashgan Qирг'изистон va Тоjikiston Respublikalarining iqtisodiy-geografik o'rni, subregiondagi boshqa davlatlarning joylashuviga nisbatan birmuncha noqlay hisoblanadi.

Markaziy Osiyo subregioni iqtisodiy-geografik o'rnining ijobiy tarafí uning tranzitligi, ya'ni Yevropa va Osiyo turli qismlarining quruqlik transport tizimlarini bog'lay olish imkoniyatlarida o'z aksini topadi. Bu holat tarixda Buyuk Ipak yo'li hozirgi Markaziy Osiyo davlatlari hududidan o'tganligida namoyon bo'lgan. Hozirgi davrda ham subregion mamlakatlarining iqtisodiy-geografik imkoniyatlari shu jihatdan yuqori baholanishi asosli. Markaziy Osiyoning geosiyosiy o'rni o'ziga xos bo'lib, Yevrosiyodagi asosiy geosiyosiy kuch markazlari Xitoy, Rossiya, Eronga tutashligi va ushbu bevosita qo'shnilaridan tashqari, AQSH, Yevropa ittifoqi, Turkiya, Saudiya Arabiston, Hindiston, Pokiston kabi geosiyosiy "o'yinchilarning tashqi manfaatlari kesishgan hududda joylashganligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, harbiy mojarolar tugamayotgan Afg'oniston bilan chegaradoshligi hamda boshqa real va ehtimoliy harbiy-siyosiy ziddiyat zonalariga yaqin joylashganligi, Markaziy Osiyo geosiyosiy o'rnining salbiy tomonlarini belgilaydi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, Markaziy Osiyoning geosiyosiy ahamiyati mintaqaning o'z salohiyati bilan emas, balki asosan boshqa, chindan ham muhim

mintaqalarga yaqinligi bilan belgilanadi. Masalan, «Wikpediya fri ensiklopediya» deb nomlangan ommabop Internet-saytda quyidagi so'zlarni o'qish mumkin: «Markaziy Osiyo uzoq davr mobaynida strategik ahamiyatga molik mintaqalarga hisoblanib kelingani faqat uning Yevrosiyoda joylashgan buyuk davlatlarga yaqinligi bilan bog'liq. Mintaqaning o'zi hech qachon ko'p sonli o'troq aholiga ham, o'z tabiiy boyliklaridan foydalanish qobiliyatiga ham ega bo'limgan. Shu boisdan bu mintaqalarga tarixida uning hududida qudratli imperiya yoki nufuzli davlatlar kam vujudga kelgan. Markaziy Osiyo asosan tashqi kuchlar raqobatlashgan maydon bo'lgan».¹

Markaziy Osiyoga subregioniga tasnif berganda, bu geografik tushunchaning "O'rta Osiyo" atamasi bilan bog'liqligini, ularning o'zaro farqini izohlash o'rinni. O'rta Osiyo – Yevrosiyo materigining 14 ta tabiiy geografik o'lkkalaridan biri bo'lib, g'arbda Kaspiy dengizi, sharqda Tyanshan tog'lari, shimolda Qozog'iston past tog'larining etaklari, janubda HindukUsh va Turkman-Xuroson tog'lari bilan chegaralangan, asosan Orol va Balxash ko'llarining berk havzalariga to'g'ri keladi. Demak, O'rta Osiyo o'lkasi tabiiy geografik xususiyati va chegaralari asosida ajratiladigan hududiy birlik hisoblanadi. O'rta Osyoning tabiiy chegaralari doirasida 4 ta mamlakat, ya'ni O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston butunligicha joylashgan, shuningdek, Qozog'iston Respublikasining markaziy va janubi-sharqiy, Afg'oniston va Eronning shimoliy, Xitoyning yesa chekka shimoli-g'arbiy qismi ham O'rta Osiyo hududiga to'g'ri keladi. Markaziy Osiyo siyosiy-geografik subregioni yesa ayni davlat chegaralari bo'yicha ajratiladigan hududiy birlik hisoblanadi.

Markaziy Osiyo atrofida kechayotgan jadal geosiyosiy jarayonlar mazkur mintaqanining yuksak geosiyosiy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Amerikalik tadqiqotchilar tomonidan AQSH kongressi uchun taylorlangan taxminiy hujjatda Markaziy Osiyo mintaqasi bundan 10 yillar ilgari AQSH uchun xech

¹ Central Asia. http://en.wikipedia.org/wiki/Central_Asia

qanday geosiyosiy ahamiyatga ega bo'limganligi hatto, yagona geografik birlik sifatida ham hech kim bilmaganligi haqida ma'lumot bilan boshlanadi.¹

Geosiyosiy ahamiyatga boshqacha aytganda uning salohiyotini belgilovchi geografik iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatga asoslanadi. Bu borada Z.Bzejinskiyning “Ushbu mintakaga yakunlashish masalasida ustunlikni kim qulga kirtsa albatta geosiyosiy va iqtisodiy yutuqni ham qo'lga kiritadi” degan fikrni eslash o'rnlidir.²

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning quydagi fikirlari ham o'rnlidir: ”O'zbekistonning va Markaziy Osiyodagi boshqa respublikalarning hozirgi jug'rofiy siyosiy tizimlardagi roli juda sezilarli va kattadir. Shu tufayli bu respublikalarda yuz berayotgan hodisalar jahondagi eng yirik davlatlar turli jug'rofiy siyosiy tuzulmalarning manfatlariga dahldordir”.³ Mintaqaning geosiyosiy mavqeyini o'rganish geosiyosiy bir necha olimlar xususida fikr yuritishni talab etadi. Mumtoz geosiyosiy nazariyaga ko'ra, har bir mintaqaning geosiyosiy mavqeい quydagilar bilan belgilanadi:

- geografik joylashuv va tabiiy iqlim xususiyatlari
- iqtisodiy saloxiyati
- shu hududda yashovchi xalqlarning qat'iy ravishda tabiy geografik omillar ta'siri ostida shakillangan mentaliteti hamda an'anaları.

-Ushbu xususiyatlar ta'sirida shakllangan siyosiy tuzumning tabiatı.

Geosiyosatning nazariy qoidalariga muvofiq, avvalo Markaziy Osiyoning jug'rofiy o'lchamlari to'g'risida fikr yuritish maqsadga muvofiq. Zero, mintaqaning hududi joylashuvi va ko'rsatkichlari uning geosiyosiy salohiyatini belgilab beruvchi muhim omillardir. Yevrosiyo mintaqasida asrlar davomida kechayotgan geosiyosiy jarayonlar ham ilmiy nazariy, ham Amaliy jixatidan uning

¹ Starr S.F. The war against terorizm and U.S. bilateral relations sixth the nations of Central Asia. U.S.Senate commettee on Foreign Relations. Subcommittee on Central Asia and the Southern Caucasus. - 12.13.2001

² Бзежинский З. Великая шахматная доска господства Америки и её геостратегический императвы. – М. Международный отношение, 1998. –С.259.

³ Каримов И.А. Ўзбекистн XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –Б.228.

markaziy qismi, aniqrog'i "Heartland"(Yer yuragi)ni egallahsha yo'naltirilganligini ko'rsatadi.¹

Ayrim manbalarga qaraganda, yerning Ushbu (ya'ni yurak) qismi Markaziy Osiyon ham o'z ichiga oladi. Albatta, bu mintaqqa aynan "Yurak "ning markazini tashkil etmasada, "Yurakka boradigan ba'zi o'q tomirlar" ana shu hudud orqali o'tgan. Buni Markaziy Osiyo tarixiga nazar tashlagan holda Ushbu hududda hukumronlik uchun bo'lib o'tgan son sanoqsiz urushlar, hozirga qadar davom etib kelayotgan shiddatli jarayonlardan ham anglash mumkin.²

Rus geosiyosiy tadqiqotchilardan A. Duginning ta'rifiga ko'ra, Markaziy Osiyo hududi G'arbda Kaspiydan boshlab shimoli-Sharqda Oltoy o'lkasiga qadar, shimoldan shimoliy Qozog'iston va yana yuqoriqoqdagi ayrim Rossiya guberniyalaridan janubda Pokistonga qadar hududni egallaydi.³ Garvard Universitetida (AQSH) joylashgan Markaziy Osiyon o'rganuvchi yirik markazlardan biri «The Harvard programme on Central Azia» o'zining internet saytida Markaziy Osiyo xaritasini joylashtirgan.⁴ Boshqacha aytganda, Markaziy Osiyo xaritasi Ushbu markazning rasmiy belgisi xisoblanadi. Bunga ko'ra, Markaziy Osiyo Eronning Sharqiy hududlari, Xitoyning ayrim g'arbiy provintsiyalarigacha cho'zilgan.

Ko'pgina g'arb tadqiqotchilar ham Markaziy Osiyoning jug'rofiy o'lchamlari to'g'risida shunga yaqin fikr bildirishadi. Bugungi kunda Markaziy Osiyoning geosiyosiy ahamiyati keskin oshirib borayotgan va tashqi ta'sir kuchayayotgan bir paytda uning jo'g'rofiy o'lchamlarini turli darajada ko'rsatish mintaqaga kirib kelayotgan kuchlarning strategik manfaatlariga bog'liq. Markaziy Osiyoning o'lchamlari A.Gumboldt davriga kelib ancha-muncha aniq shaklga ega bo'la boshlagan bo'lib, qit'aning ichki qismi Markaziy Osiyo deb atalgan. O'rta

¹ Маккиндер Х.Дж. Географическая ос историй . // Полис: –1995. –№4. –С.162-170.

² НАТО и Центральная Азия // www.transcaspian.ru/cgi-bin/web.exe/rus/4644.html - 28.09.2009.

³ Дугин А.Основы geopolитики. –М.: Арутогея, 1997. –С.353-364.

⁴ Central Asia. www.fas.harvard.edu-centasia

Osiyoning Kaspiy dengiziga borib taqalgan g'arbiy qismning janubiy chegaralari hususida olimlar hanuzgacha yagona fikrga kelmagan.

Giosiyosiy nazariyaning muhim shartlaridan biri mintaqalarning jo'g'rofiy xususiyatlari, xususan, yer yuzasi, tuproq tarkibi, suv havzalari yoki tog'larga yaqinligi kabi omillarning sinchiklab o'rganish orqali shu hududdagi xalqlar va davlatlarning siyosiy tabiatiga baho berishdan iborat. Chunki davlatlar va elatlar hududdagi jo'g'rofiy va tabiiy sharoit, shuningdek, zaminning hususiyatlariga uzviy bog'liq holda shakllanishi to'g'risidagi qoida Ushbu fanning negizida yotadi. Rossiya Eron va Xitoy kabi geosiyosiy nuqtai nazaridan muhim davlatlar bilan chegaradosh bo'lган mintaqada bor-yo'g'i 50 mln atrofida aholi istiqomat qiladi.

Asosiy hududi tekislik va past tekisliklardan iborat bo'lган mintaqaning iqlimi ko'proq kontinental, mo'tadil, ayrim tog'li hududlarda arktik xususiyatga ega. Mintaqaning ko'pgina qismi cho'llar hamda tekisliklardan iborat bo'lsa-da, yerlearning qariyb to'rtdan biri hosildor yerlar hisoblanadi. Tabiiy iqlim sharoitlariga ko'ra, mintaqaning juda qulay ekanini ta'kidlash zarur. Turkmaniston va Qozog'iston asosan, cho'l, yarim cho'l, tekisliklar va past tekisliklardan iborat. Yillik yog'in miqdori shimoliy va markaziy tekislik hududlarida-300mm, cho'llarda-100mm, tog'li hududlarda esa-600mm ni tashkil etadi. Qishning eng past harorati Shimoliy hududlarda-18° janubda esa 0° atrofida, yozning eng yuqori harorati esa Shimoliy hududlarda +28, eng janubda esa +44° ni tashkil etadi.

O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston asosan, Farg'ona, Zarafshon, Vaxsh, Kofarnikon va boshqa serhosil vodiy va vohalardan iborat. Qirg'iziston va Tojikistonda tog'li hududlar Ushbu respublikalar umumiy maydonining 35-60% ni (Pomir va Tyang-Shang) tashkil etadi. Mintaqalarning jihatdan asosan, tekisliklardan iborat bo'lib, Kaspiy hamda Orol dengizlari ham Ushbu mintaqada joylashgan. Tog'li hududlar bo'lsa- Pomir va Tyang-Shang, shuningdek, ularning etaklarida joylashgan bir necha tog' tizmalaridan iborat.

Suv zaxiralari Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng muhim geosiyosiy omillardan biri hisoblanadi. Suv yo'llari, asosan, Amudaryo va Sirdaryo, shuningdek, o'nlab kichik daryo hamda o'zanlardan iborat. Garchi

Qozog'istonning shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy qismida Ural va Irtish kabi yirik daryolar mavjud bo'lsa-da, ulardan nafaqat mintaqaning, balki Qozog'istonning qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun ishlatalish imkoniyati mavjud emas.¹ Har bir respublika hududida yuzlab kichik daryolar mavjud bo'lib ularning ma'lum bir qismi yoz oylarida qurib qoladigan mavsumiy daryolar hisoblanadi.² Shuni ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyoning suv zaxiralari kam bo'lishi bilan birga ularning taqsimotida jiddiy muammolar mavjud. Mintaqaning eng yirik daryolari hisoblangan Amudaryo va Sirdaryoning yillik suv oqimi 78 km³ va 36 km³ni tashkil etadi. Mintaqadagi ichimlik suvi zaxiralari qorlar va muzliklardan tashkil topgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyoning suv zaxiralari kam bo'lishi bilan birga, ularning taqsimotida jiddiy murakkabliklar mavjud.

Daryolar Tojikiston va Qirg'izistonдан tog'lardan boshlanadi va qolgan barcha respublikalar bilan birgalikda iste'mol qilinadi.

Keyingi yillarda Tojikiston va Qirg'iziston Amudaryo va Sirdaryoning yuqori oqimida yirik GESlar qurishga intilishi kelajakda mintaqaviy EKOTIZIM, seysmik barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mintaqada Turkmaniston va Qozog'iston hududida Kaspiy dengizi, O'zbekiston va Qozog'iston hududida Orol dengizi, Qirg'iziston hududida Issiqko'l mavjud bo'lib, ular atrofidagi muammolar mintaqadagi deyarli barcha respublikalarni qamrab oladi.

Masalan Kaspiyning dengiz yoki ko'l ekanligi borasida ham biror yagona yechimga kelinganicha yo'q. Ushbu masala Kaspiy bo'yidagi tomonlarning geosiyosiy strategiyasiga bog'liq, hamda doimo dolzarblashib turuvchi muhim mintaqaviy masala hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Kaspiy statusi masalasi uning suv resurslari bilan emas, balki ko'proq uning tubidagi qazilma

¹ Бундан ташқари, Қозғистоннинг асосий деҳқончилик ривожланган асосий худулари жанубда жойлашган бўлиб, Сирдарё ҳавзасидан сув ичади.

² Маълумотларга қараганда, биргина Қозғистонда 8500 йирик ва кичик дарёлар мавжудлиги аниqlangan. Карап. Ҷен К.Ф. Геополитика Казахстана. –Алматы: Жеты Жарғы, 1999. –С.158.

boyliklarining taqsimotiga borib taqaladi. Orol muammosi ham butun mintaqa ekotizimiga ta'sir ko'rsatayotgan jiddiy mintaqaviy muammo bo'lib, uning bartaraf etilishi, bevosita mintaqadagi davlatlarning o'zaro izchil hamkorligini talab etmoqda. Mintaqqa aholisining yarmidan ko'prog'i, boshqacha aytganda 35mln kishi Orol muammosi ta'sirida qolgan.¹

Fikrimizcha, Yevroсиyo strategik muvozanatida Markaziy Osiyoning o'rni benihoya muhim.

Markaziy Osiyoda jug'rofiy-siyosiy jixatdan markaziy o'rin tutgan O'zbekiston kuchlar tengligi va muvozanatini ta'minlash, strategik muhim bo'lган ushbu mintaqada hamkorlikka mustahkam zamin yaratish jarayonida sezilarli rol o'ynash uchun hamma imkoniyatlarga ega. Mintaqqa ijtimoiy- iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mamlakat, katta ma'naviy kuch-qudratga ega bo'lган O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar - Qozog'iston, Qирг'изистон, Тоҷикистон, Туркманистон ва Ағғонистон о'rtasida bog'lovchi halqa vazifasini o'taydi. O'zbekiston bilan faol hamkorlik qilish orqali butun Markaziy Osiyo mintaqasida manfaatli munosabatlar o'rnatish imkoniyati ochiladi.

Biz Yevroсиyo strategik muvozanatida Markaziy Osiyoning o'rni benihoya muhimligini ta'kidlagan edik. Mazkur holatdan kelib chiqib, bu mintaqadagi davlatlarning geografik, tabiiy iqlim sharoiti, demografik ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilishni lozim deb o'ylaymiz.

Qozog'iston. Qozog'iston Markaziy Osiyoda joylashgan bo'lib, Xitoyning shimoliy-g'arbiy tarafini ham ishg'ol etgan.

Umumiy maydoni: 2 717 300 km kv:

Iqlimi: kontinental, quruq, yozi issiq, qishi sovuq.

Rel'efi: Volgadan to Oltogyacha va G'arbiy Sibirdan tortib Markaziy Osiyoning oazislari va cho'llariga qadar tekisliklardan iborat.

Tabiiy zaxiralari: tabiiy gaz, ulkan neft zaxiralari, ko'mir, temir rudasi, oltin, uran, kumush, mis, qo'rg'oshin, sink, kobalg't, xrom, molibden, boksit, marganets.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. –Б.116-120.

Dehqonchilik:

Haydaladigan yerlar:	12%,
Yaylovlar:	57%,
O'rmonlar:	4%,
Boshqalar:	16% (1996 y.r.m.)

Sug'oriladigan atrof-muhit bilan bog'liq quyidagi dolzARB muammolar mavjud. Butun amaliyot bo'ylab radiaktiv va zaharli moddalar ishlab chiqariladigan hududlar va harbiy poligonlarning ifloslanganligi, shunga bog'liq holda aholi o'rtasida kasalliklarning tarqalishi, ayrim shaharlarda sanoat chiqindilarining ko'pligi, Orol dengiziga quyiladigan suvlarning haddan tashqari ko'p ishlatilishi oqibatida ushbu suv havzasining qurib borayotganligi va shu bilan bog'liq holda tabiiy tuzlar va qumlarning haddan ortiq ko'payib ketishi va ularning to'zon holida boshqa hududlarga tarqalishi. Kaspiyning ifloslanishi, pestitsidlarning haddan tashqari ko'p qo'llanilishi, noto'g'ri sug'orish va infratuzilmalardagi kamchiliklar oqibatida tuproqning ifloslanishi va sho'rlanishi.

Qirg'iziston. Markaziy Osiyoda Xitoyning g'arbida joylashgan mamlakat.

Umumiy maydoni: 195 800 km kv.

Iqlimi: tekislik qismida quruq kontinental, Tyang-Shang tog'larining yuqori qismida qutb iqlimi hukm suradi. Janubiy-G'arbiy hududlar (Farg'ona vodiysi) da subtropik, shimoliy tog'li hududlarda esa mo'tadil.

Rel'efi: Tyang-Shang tizmalari, ular orasida vodiyalar va chuqur botiqlar (kotlovanlar).

Tabiiy zaxiralari: gidroenergetik zaxiralari, ko'p miqdorda oltin va boshqa nodir metal zaxiralari, mahalliy ahamiyatga ega ko'mir, neft, gaz zaxiralari, nefelin, simob, qo'rg'oshin, vismut, sink.

Dehqonchilik:

Haydaladigan yerlar:	7%,
Yaylovlar:	44%,
O'rmonlar:	4%,
Boshqalar:	45%,

Sug'oriladigan yer yuzida eng yirik tabiiy ravishda o'suvchi yong'oq o'rmonlari mavjud.

Qирг'изистонда атроф-мухит билан bog'liq dolzARB muammolar ko'proq suvning ifloslanishiga bog'liqdir. Aholining ko'pgina qismi ifloslangan manbalardan suv ichishi oqibatida suv orqali tarqaladigan ayrim yuqimli kasalliklar kuzatilgan. Sug'orishda yo'l qo'yilgan hatolar tufayli yerlarning sho'ralanishi ro'y berdi.

Turkmaniston. Markaziy Osiyoda Kaspiy dengizining Qozog'iston va Eronga tegishli qирг'oqlari orasida joylashgan mamlakat.

Iqlimi: subtropik cho'l iqlimi.

Rel'efi: janub tomonga borgan sari tog'larga aylanadigan tekis va tepaliklardan iborat qumli barxanli cho'ldir. Eron chegarasi bo'ylab past tog' tizmalari.

Eng yuqori va eng past nuqtalari: Akchanay botig'i-81 m., va eng yuqori nuqtasi Ayrababa tog'i 3139 m.¹

Tabiiy zaxiralari: tabiiy gaz, neft, ko'mir, sera, tuz.

Dehqonchilik:

Haydaladigan yerlar:	3%,
Yaylovlari:	63%,
O'rmonlar:	8%,
Boshqalar:	26% (1993 y.r.m.)

Sug'oriladigan maydonlar: 13 000 km kv.

Turkmanistonda ham атроф-мухит билан bog'liq ayrim dolzARB muammolar mavjud. Jumladan, qishloq xo'jaligi pestitsidlari bilan tuproqlar va yer osti suvlarining ifloslanishi. Sug'orishda yo'l qo'yilgan hatoliklar tufayli yerlarning sho'rlanishi. Kaspiyning ifloslanishi, Amudaryo suvining haddan tashqari ko'p miqdorda sug'orishga jalb etish oqibatida Orolga suv quyilishining keskin kamayishi, cho'llarni keng ayishi bilan bog'liq muammolar.

Tojikiston. Markaziy Osiyoda Xitoyning g'arbida joylashgan mamlakat.

¹ Туркманистоннинг шимоли-шарқида жойлашган Саракамиш кўлининг сув сатҳи жуда ўзгарувчан бўлиб, энг паст даражаси 110 метрга қадар, яъни Акчанай ботигига нисбатан ҳам пастга тушиб боради.

Umumiy maydoni: 143,100 km.kv.

Iqlimi asosan, kontinental mo'tadil, yozi issiq, qishi yumshoq, yarim quruq bo'lib, Pomir tog'lariga borgan sayin arktik iqlim bilan almashinadi.

Rel'efi: Pomir va Oltoy tog'lari mamlakat rel'efini belgilab beradi. Mamlakat shimolida Farg'ona vodiysining g'arbiy qismi, janubi-g'arbda esa Koxarnikon va Vaxsh vodiysi joylashgan.

Tabiiy zaxiralari: gidroenergiya, ma'lum miqdorda neft, uran, qo'rg'oshin, sink, surma, qo'ng'ir ko'mir, simob, volfram.

Dehqonchilik:

Ekiladigan yerlar: 0%,

Yaylovlari: 25%,

O'rmonlar: 4%,

Boshqalar: 65% (1993 y.r.m.)

Sug'oriladigan maydonlar: 6390 km kv. Tojikistonning atrof-muhit bilan bog'liq muammolari quyidagilardan iborat. Jumladan, sanitar vaziyatning qoniqarli emasligi, tuproq sho'rланishining kuchayishi sanoat chiqindilari, pestitsidlarning haddan tashqari ko'p qo'llanilishi, Orol dengiziga quyiladigan daryolar suvining sug'orish uchun haddan tashqari ko'p sarflanishi oqibatida yuzaga kelgan muammolar.

O'zbekiston. Afg'onistonning shimolida joylashgan Markaziy Osiyo markazida joylashgan respublikadir.

Umumiy maydoni 447,4 km. Kitha ichida joylashgan ochiq dengizga chiqish yo'llari yo'q.

Iqlimi: asosan mo'tadil, yozi uzoq va issiq, qishi yumshoq. Sharqiy hududlari quruq cho'llar, chala cho'llar va dashtlardan iborat. Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryolaridan sug'oriladigan keng maydonlarga ega. Geosiyosat nuqtai nazaridan O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazini egallagan hamda muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy salohiyati hamda demografik imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi boshqa

davlatlardan ajralib turadi. Jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi aholisining 40% O'zbekistonda istiqomat qiladi.

Qo'shni respublikalarining O'zbekistonga chegeradosh bo'lgan barcha ma'muriy hududlarida o'zbeklar mahalliy elatlar bilan birgalikda yashab keladi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan bag'rikeng lik, urf-odatlarni e'zozlash, an'analarga amal qilish, yashayotgan elatlar o'rtasida uning yetakchiliginini ta'minlaydi.

Bu hol O'zbekistonning mintaqada nafaqat jug'rofiy, balki Etno-madaniy nuqtai nazardan ham o'ziga xos ko'prik vazifasini o'tayotganini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaning geosiyosiy mavqeい quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Markaziy Osiyoning geosiyosiy mavqeい, avvalo, uning iqtisodiy imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bu borada eng manfaatli hamkorlik bilan ish olib borish muhimligini ta'kidlab, mintaqada yetakchi davlatlar manfaatlarining shiddat bilan shakllanib borayotganini inobatga olish zarur. Shu bilan birga, iqtisodiy manfaatlarini amalga oshira olmagan tashqi kuchlar diniy, millatlararo munosabatlar, hududiy muammolar, suv taqsimotiga oid masalalar kabi omillarga tayanib, mintaqadagi barqarorligini izdan chiqarishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, millatlararo munosabatlarda barqarorlikni ta'minlash mintaqaviy xavfsizlikni muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, mintaqada suv taqsimoti masalalarida hukumatlararo komissiya ishini to'g'ri yo'lga qo'yish, Respublikalar o'rtasida chegaralash ishlarini ohiriga yetqazish mintaqadagi komunikatsion tizimning takomillashtirilishi uning iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini oshishiga olib keluvchi omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, mintaqada, jumladan, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarning mavzulariga e'tibor qaratish va ularning mintaqaga ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri to'g'risida amaliy tadqiqotlar olib borish hamda tegishli xulosalar chiqarish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu mahnoda manfaatlarning tengligi asosida barcha, ayniqsa, rivojlangan davlatlar bilan o'zaro foydali hamkorlik o'rnatish mintaqqa mamlakatlarining dunyo

iqtisodiy tizimiga tadrijiy hamda qonuniy tarzda integritsiyalashuvi hamda, Markaziy Osiyo geosiyosiy ahamiyatini yanada kuchayishiga olib kelishi shubhasizdir. Shu o'rinda **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Miorziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasida "O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo – bosh ustuvor yo'nalish"** tamoyilini amalda tatbiq etishga kirishdik. Natijada mintaqamizda mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik asosidagi aloqalar mustahkamlanmoqda.

Turkmaniston va Qirg'iziston bilan strategik hamkorlik o'rnatildi. Qozog'iston bilan strategik hamkorligimizni yanada chuqurlashtirish borasida bir qator muhim hujatlar imzolandi, 2 milliard dollar miqdorida iqtisodiy bitimlar tuzildi. Tojikiston bilan hamkorligimiz har tomonlama mustahkamlanmoqda. Toshkent va Dushanbe shaharlari o'rtasida aviaqatnov yo'lga qo'yildi.

Qirg'iziston bilan davlat chegaralari to'g'risidagi bitimning imzolanishi Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan katta qadam bo'ldi. Qo'shni Afg'oniston Islom Respublikasi bilan o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lida muhim kelishuvlarga erishildi, yangi iqtisodiy loyihalar bo'yicha amaliy ishlar boshlandi. Shuningdek, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlari, musulmon mamlakatlari bilan ham samarali bitim va kelishuvlarga erishildi¹ deb takidlaganlari ham mintaqqa mamlakatlarini nechog'li bir-birlariga bo'liqligini isbotidir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
<http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-2017>

1.2. Markaziy Osiyo davlatlarining demografik va ekologik muammolari

Markaziy Osiyo mamlakatlarining aholisi suv va yer resurslari omillari (gidrogralik tarmoqlar va relef)ga bog'liq holda notejis joylashib, asosan, sug'orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan daryo vodiy va deltalar, tog' oralig'idagi botiqlarda mujassamlangan. Bunday yerlar eng ko'p O'zbekiston hududida bo'lganligi bois respublikamiz aholi soni jihatidan subregionda yelakchi o'rinn egallaydi. Aholi zichligi ko'rsatkichlari bo'yicha Markaziy Osipyoda 2017-yil 1-yanvar holatiga, O'zbekiston (71,5 kishi km/kv) va Tojikiston (61,3 kishi km/kv) yetakchi, Qozog'iston (6,6 kishi km/kv) esa eng oxirgi o'rinda turadi. Jahan mamlakatlari orasida ham. Qozog'iston aholisi eng siyrak joylashgan davlatlar saliga kiradi (o'rtacha aholi zichligi bo'yicha dunyoda 184-o'rinn).¹

Markaziy Osiyo davlatlarining demografik vaziyatiga tug'ilish va aholi tabiiy o'sishining ancha yuqori ko'rsatkichlari xos. Aytilgan ko'rsatkichlar Tojikiston va Qirg'izistonda subregion bo'yicha eng baland. Qozog'iston va turkmanislonda eng past. O'zbekistonda esa o'rtacha darajada. Shuningdek, beshta respublikada ham migratsiyaning salbiy saldosi kuzatilmoqda. urbanizatsiya darjasini Qozog'iston da 53%, O'zbekistonda 51%, turkmanistonda 50%, Qirg'izistonda 36%, Tojikistonda esa 26% ga teng. Ko'rinish turibdiki, eng yuqori va eng past ko'rsatkichlari orasidagi tafovut 2 martaga teng. Markaziy Osipyoda 2 ta "millioner" shahar mavjud: Toshkent (2,4 min kishi) va Almati (1,7 min kishi). Ostana, Bishkek, Dushanbe, Ashxobod, Chimkent, Namangan, Samarqand esa eng yirik (aholi soni 500 ming kishidan ortiq bo'lgan) shaharlar qatoriga kiradi. Mahalliy xalqlardan o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoqlar oltoy tillar oilasining turkiy guruhi mansub bo'lsa, tojiklar va ularga qardosh pomirdagi kichik xalqlar (Shug'nonlar, vaxanlar, ishkashimlar va boshq.) Hind-Evropa tillar oilasining Eroniy guruhi tarkibiga kiradi. sanab o'tilgan millat vakillari, nafaqat tegishli respublikalarda, balki qo'shni davlatlar hududida ham keng tarqalgan. masalan, o'zbeklar O'zbekistonga qo'shni Qirg'iziston, Tojikiston, turkmanistonda son

¹ O'zbekiston aholisi. https://www.wikizero.com/uz/O%CA%BBzbekiston_demografiyasi 07.08.2017.

jihatidan 2-chi, Qozog'istonda esa 3-chi millat hisoblanadi. O'z navbatda, O'zbekistonda ham tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar va turkmanlar vakillari salmoqlidir.¹

O'zbekiston aholisi soni 32 million 345 ming kishi bo'lib (2017-yil 7-avgustga ko'ra), shahar aholisi 16 353 ming kishini tashkil etadi (2017). Aholi zichligi 1 km² ga 62 kishi. O'zbekistonda O'rta Osiyodagi jami aholining 1/3 qismidan ko'prog'i yashaydi.²

O'zbekiston respublikasi jami aholisining 36,3 % shaharlarda, qolgan qismi qishloqlarda yashaydi. So'nggi yillarda urbanizatsiya darajasining pasayib borishi va qishloq aholisi hissasining o'sishi kuzatilmoxda. Bugungi kunda dunyoning boshqa davlatlariga nazar solsak, Shahar bilan qishloq joylar orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farq va chegaralarning yo'qolib borish jarayoni rurbanizatsiya atamasi bilan yuritiladi.

Dunyo va yirik regionlarning urbanizatsiya darajasi (2016-yil % hisobida)

№ Hududlar	Urbanizatsiya
1 Dunyo	54
2 Rivojlangan davlatlar	78
3 Rivojlanayotgan davlatlar	49
4 Yevropa	74
5 Osiyo	48
6 Afrika	41
7 Shimoliy amerika (AQSH va Kanada)	81
8 Lotin amerikasi	80
9 Avstraliya va okeaniya	70

¹ Markaziy Osiyo mamlakatlari <http://geografiya.uz/10-sinf-geografiya/11257-markaziy-osiyo-mamlakatlari.html> 17.10.2017.

² Население Узбекистана превысило 32,3 млн человек. <https://www.gazeta.uz/ru/2017/08/07/demography/> 07.08.2017.

Demak, jahon mamlakatlarida urbanizatsiya jarayoni turli bosqichlarida rivojlanib bormoqda va bu, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.¹

O'zbekiston respublikasi bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiradi va davlatimizda aholi sonining ko'payib borishi turli sohalarga va xizmatharga hamda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarga talab kuchayishini vujudga keltiradi. Bu esa davlatda yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarishni kengaytirish va oziq-ovqat maxsulotlari bilan taminlash kabi dolzarb vaziyatni vujudga keltiradi. Buning yechimini turli sohalarimizni kengaytirish va isloh qilish bilan amalga oshirish mumkin. Ya'ni bugungi kunda davlatimiz qo'shni davlatlar bilan yashi qo'shnichilik siyosatini amalga oshirayotgan bir paytda, boshqa davlatlar bilan ham hamkorlikni yanada kuchaytirish orqali, katta investitsiyalarni davlatimiz iqtisodiyotiga jalb qilib qo'shma korxona va zavodlarni yaratish kabi dolzarb vazifani amalga oshirishni talab etadi. Shunday ekan mamlakatimiz rivojlanishi uchun o'zimizda ishlab chiqarishni kuchaytirish natijasida eksport ko'rsatkichini oshirish, import tovarlarni kamaytirish kerak.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edi "Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari rahbarlari yuritayotgan siyosat xalqlarimiz do'stligiga putur yetkazmasligi kerak. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari o'zaro kelishgan holda siyosat yuritsalar, bugungi qiyinchiliklarni yengish ancha osonlashar edi. Ayniqsa, narx-navo siyosati va milliy valyutani muomalaga kiritish chog'ida bu juda muhimdir. Azal-azaldan chegara nimaligini bilmagan hududlarda majburiy chora sifatida bojxonalar o'rnatilmoqda. Agar birgalashib siyosat yurgizilsa, bunga hojat qolmaydi."² Ushbu so'zlarning amaldagi isbotini bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan qo'shni davlatlar o'rtasidagi chegara bojxonalarida fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin.

¹ Urbanizatsiya jarayonining global va regional jihatlari. <http://geografiya.uz/10-sinf-geografiya/11314-urbanizatsiya-jarayonining-global-va-regional-jihatlari.html> 28.10.2017.

² Каримов И.А. ИСЛОХОТЛАР МУВАФФАҚИЯТИ - ИСТИҚЛОЛ КАФОЛАТИ. Т.1.—Т., Ўзбекистон, 1993, 135-б.

2017-yil 22-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasida shunday so'zlar takidlab o'tildi "O'tgan davr mobaynida tashqi siyosat sohasida xorijiy davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida sezilarli natijalarga erishdik."

"2017 yilda 21 ta oliy darajadagi tashriflar amalga oshirildi, 60 dan ortiq davlat va xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazildi. natijada 400 dan ortiq bitim va kelishuvlarga erishildi, qariyb 60 milliard AQSH dollari hajmidagi savdo va sarmoyaviy shartnomalar imzolandi. qabul qilingan hujjat va kelishuvlarni o'z vaqtida to'liq bajarish maqsadida 40 ta "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi va xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda amalga oshirilmoqda."

"O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo – bosh ustuvor yo'naliш" tamoyilini amalda tatbiq etishga kirishdik. Natijada mintaqamizda mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik asosidagi aloqalar mustahkamlanmoqda.

Mamlakatimizda qabul qilingan harakatlar strategiyasiga muvofiq, biz tashqi siyosat sohasida barcha uzoq va yaqin davlatlar, avvalo, qo'shni mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish siyosatini izchil davom ettiramiz".¹ Shu bilan birga I.A. Karimov ham Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikni qo'lga kiritganlaridan so'ng, xar biri o'zining siyosiy va iqtisodiy, tashqi va ichki siyosatida ustuvor tamoyillarni aniqlab olgan holda o'z davlatchiligin shakllantira boshladi. Davlatchilikni shakllantirish jarayoni, albatta, oson kechmadi. Chunki mintaqadagi davlatlarning xar birida ichki va tashki muammolar yetarli edi. Har qanday mintaqaning xal qilinmagan va gazak otib ketgan muammolari butun dunyoda zanjir reaktsiyasini keltirib chiqarishi mumkin. Markaziy Osiyo mintaqasida turli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
<http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-2017>

siyosiy, iqtisodiy, harbiy, transportga va ekologiyaga oid muammolar to'planib qolgan.¹

Mintaqadagi ekologik muammolar. Ularning eng mashhuri Orolbo'yidagi ekologik halokatdir. Bir avlodning ko'z o'ngida butun bir dengiz yo'q bo'lган hol insoniyat tarixida hali ro'y bergen emas edi. Ushbu halokat sabablari antropogen xususiyatga ega va inson faoliyati, yangi yerlarning jadal sur'atlarda o'zlashtirilishi va suv resurslaridan oqilona foydalanil maganligi bilan bojliq. Natijada, 60-yillardan boshlab, Amudaryo va Sirdaryoning Orolga quyilayotgan suvlari astasekin kamayib bordi, 80-yillarning oxiriga kelib esa butunlay barham topdi. Shundan buyon dengiz hajmi to'rt baravar qisqardi, uning sathi 20 metrga pasaydi, suvning minerallashuvi darajasi to'rt baravargacha oshdi, dengiz tubining 33,4 ming kv.km.dan iborat qismi quridi va sahroga aylandi. Orol dengizining sobiq tubi endi atmosferaning zaharli tuz va chang-to'zonlar bilan ifloslanish manbai sifatida ta'sir ko'rsatmoqda. Orol dengizi ustidan g'arbdan sharqqa o'tuvchi kuchli shamol oqimi aerozollar havoning yuqori qatlamlariga ko'tarilishi va Yer atmosferasida tez tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Olimlar Orol dengizi tubidan ko'tarilgan tuz va boshqa zaharli chang-to'zonlar atmosferada aerozol tarkibi 5% ga ko'payishiga olib kelayotganini, bu esa, o'z navbatida, dunyo miqyosida isish jarayoniga va iqlimning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatayotganini qayd etdilar.²

Orol muammosi ham butun mintaqqa ekotizimiga ta'sir ko'rsatayotgan jiddiy mintaqaviy muammo bo'lib, uning bartaraf etilishi mintaqadagi davlatlarning o'zaro izchil hamkorligini talab etmoqda. Mintaqqa aholisining yarmidan ko'prog'i (35 mln. kishi) Orol muammosi ta'sirida qolgan.³ Ushbu muammo XX asrda Yer yuzida ro'y bergen eng mudhish ekologik falokat bo'lgani tufayli uni bartaraf etishga nafaqat mintaqqa davlatlari, balki butun jahon hamjamiyati jalb etilgan.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистан буюк келажак сари. Т.—Т., Ўзбекистон, 1999, 421-б.

² САФОЕВ С.С. МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ ГЕОСИЁСАТ. "ПАТЕНТ ПРЕСС" –Т.:2005 –25–26 б

³ Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса.- Ташкент, 1997. С.119.

Mavjud muammoni biron-bir davlat hal qila olmaydi, uni hal etishda ko'pgina davlatlarning hamkorligi, ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlarining hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, Orol dengizi muammolarini bartaraf etish masalasi o'z ko'lami jihatidan mazkur mintaqaga davlatlari iqtisodiy imkoniyatlaridan yuqori turadi.¹

Joriy 2018-yilning 20-fevral kuni Toshkent shahrida mamlakatimizdagi vazirlik va idoralar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, diplomatik missiyalar vakillari uchun seminar-brifing tashkil etildi.

Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad, shu yilning 5-8 iyun kunlari O'zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi tashabbusi bilan "Markaziy Osiyoda atrof-muhit va barqaror rivojlanish sohasida hamkorlikni mustahkamlash" mavzusida bo'lib o'tadigan Markaziy Osiyo xalqaro ekologik forumiga tayyorgarlikdan iborat edi.

Tadbirda Yevropa, Osiyo va Markaziy Osiyoning atrof-muhitni muhofaza qilish, suv xo'jaligi bo'yicha davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari, bmtning tuzilmaviy tashkilotlari, yetakchi xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari, ilmiy va jamoat tashkilotlari vakillarining ishtirok etishi rejalashtirilgan.

Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazining ijrochi direktori Iskandar Abdullaev. – So'nggi vaqtarda Markaziy Osiyoda o'zaro hamkorlik rivoj topdi, xususan suv masalalarida ham sezilarli ilgarilash ro'y berdi. Siyosiy iroda tufayli biz suv masalasini kelishmovchilik tarzida emas, balki hamkorlik predmeti sifatida ko'rib chiqmoqdamiz. bu esa, o'z navbatida, masalani hamjihatlikda ko'rib chiqish imkonini bermoqda. Ta'kidlash joizki, biz hamkorlikni tiklash barobarida iqtisodiy salohiyatni ham tiklaymiz. Iskandar Abdullaev ta'kidlab o'tganidek, Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi 2001-yildan buyon Markaziy Osiyoning 6 ta mamlakatida, shu jumladan Afg'onistonda ham faoliyat yuritib kelmoqda. tashkilot 5 ta yo'nalishni, jumladan, iqlim o'zgarishi, energiya samaradorligi, suv masalalari

¹ Orolbo'yi mintaqasining ekologik muammolari. <http://geografiya.uz/ekologiya/120-orolboyi-mintaqasining-ekologik-muammolari.html> 11.04.2015.

bo'yicha hamkorlik, atrof-muhit, salomatlik va barqaror rivojlanish uchun ta'lim kabi muhim masalalarni qamrab olgan.¹

Rejalashtirilayotgan xalqaro forum mintaqaviy masalalarni hal etishga yo'naltirilgan hamda o'zaro kelishilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun samarali hamkorlik maydonini tashkil etishga imkon beradi.

¹ Markaziy Osiyo xalqaro ekologik forumiga tayyorgarlik. <http://uza.uz/uz/society/markaziy-osiyo-xalqaro-ekologik-forumiga-tayyorgarlik--20-02-2018>

II Bob. Markaziy Osiyo davlatlarining integrasiyalashuvida geografik omillarning ahamiyati

2.1. Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari tomonidan suv resusrlaridan foydalanish va ekologik vaziyatni barqarorlashtish borasidagi hamkorlik

Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy masalalaridan biri sifatida qadimdan mavjud. Ota-bobolarimiz aql-zakovati bilan daryolardan unumli foydalanishga e'tibor qaratilib, aholini suv bilan ta'minlash maqsadida kanallar qazilgan, suvdan uzoqroq joylar ham tabiiy suv bilan ta'minlangan va obod qilingan. Bunga tarixiy obidalar qatoridan joy olgan sardobalarni misol keltirish mumkin. E'tiborli jihat, qadimdan ajdodlarimiz tomonidan aniq hisob-kitoblar asosida sug'orishning mukammal tizimi yaratilgan bo'lib, shu orqali keng dalalarga suvni kanal va ariqlar yordamida tabiiy tarzda, ortiqcha xarajatlarsiz yetkazish imkoniyatiga ega bo'lishgan.

Suv muammosi Orol dengizi havzasida Markaziy Osyoning 5 ta respublikasida joylashgan bo'lib, hududi 1550 ming km²ni tashkil yetgani holda, sug'oriladigan maydonlar 7,95 mln gettarga teng . Mintaqada tiklanadigan suv resurslari hajmi yiliga o'rtacha 118-120 km³ni tashkil yetadi. Ularning asosiy tarkibi Amudaryo, Sirdaryo suvlari hamda yer osti suvlari zaxiralari (14,7 km³)dan iborat. Suv omborlari hajmi – 60 km³ga teng.¹ Dengiz havzasida Orol dengiziga quyiladigan umumi suv resurslarining 55,4 foizi – Tojikiston hududida, 25,3 foizi – Qirg'izistonda, 7,6 foizi – O'zbekistonda, 3,9 foizi – Qozog'istonda, 2,4 foizi – Turkmanistonda, qolgan 5,4 foizi – Afg'oniston hamda qisman Xitoy va Pokiston davlatlarida shakllanadi.² Amudaryoning uzunligi 2540 kmga teng bo'lib, havzasining hududi 309 ming km²ni tashkil qiladi. Havza bo'yicha daryo oqimi o'rtacha ko'p yillik suv resurslari yiliga 78 km³dan ortiqni tashkil qiladi, shundan 62,9 km³ (80%dan ortig'i) Tojikistonda shakllanadi, O'zbekiston ulushiga 4,7 km³

¹ Рахимов Ш.Х., Хамраев Ш.Р. Водные ресурсы в бассейне Арала // Экология и статистика. Сб. статей. (www.ireco.ru).

² Водные ресурсы бассейна Аральского моря. 06.06.2009. <http://ec-ifas.org/index.php/ru/2010-05-17>

(6%) to'g'ri keladi.¹ Panj va Vaxsh daryolari qo'shilishidan boshlab Amudaryo deb atalib, uning o'rta oqimida o'ng tarafdan Kofirnigon, Surxondaryo va Sherobod hamda chap tarafdan Qunduz suvlari qo'shiladi. Daryo Tojikiston va qisman Afg'oniston shimolida shakllangach, Afg'oniston va O'zbekiston chegarasidan o'tib, Turkmaniston hududiga kiradi va yana O'zbekiston hududiga qaytadi. Daryoga keyingi 1257 km masofada boshqa oqimlar kelib qo'shilmaydi. Sirdaryoning uzunligi 3019 kmga teng bo'lib, havzasining hududi 219 ming km² ni tashkil qiladi. Havza bo'yicha daryo oqimi o'rtacha ko'p yillik resurslari yiliga taxminan 37,21 km³ni tashkil qiladi.² Bu suvning 74 foizdan ko'prog'i Qirg'izistonda, 14 foizi O'zbekistonda, 9 foizga yaqini Qozog'istonda, 3 foizga yaqini Tojikistonda Shakllanadi.³ Daryo Norin va Qoradaryo qo'shilishidan shakllanib, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston hududlaridan o'tadi va Qozog'iston hududi orqali Orol dengiziga quyiladi. Daryoning o'rta oqimida Ohangaron, Chirchiq va Keles daryolari kelib qo'shiladi. Daryoga tushadigan oxirgi oqim Aris suvlari hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslaridan foydalanish kompleks xarakterga ega. Ammo, kompleks qatnashchilarining suv iste'moli rejimi, ayniqsa energetika va irrigatsiya tarmoqlarida qarama-qarshidir. Gidrologiya nuqtai nazaridan qaraganda Markaziy Osiyo davlatlarini ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga Amudaryo va Sirdaryoning manbalarida joylashgan Qirg'iziston va Tojikiston kirib, ular boshqa boyliklarga ega bo'lмаган holda xalq xo'jaligi faoliyatini faqat gidroenergetika hisobiga ta'minlashga majburdirlar. Ikkinci guruhga yesa Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston kiradi va ular o'z iqtisodiyotlarini sug'orma dehqonchilik va sanoat hisobiga quradi. Shuning uchun ham agar ikkinchi guruh uchun suvni qishda yig'ib, uni yozda kuchli berish zarur bo'lsa, birinchi guruh

¹ Ўзбекистон Республикасида атроф-муҳит ҳолати ва табиий ресурслардан фойдаланиш тўғрисида Миллий маъруза-2008.). - Тошкент: Чинор ЭНК, 2008. - Б. 39.

² Конвенция о биологическом разнообразии. Третий национальный доклад. Узбекистан. Ташкент, 2006. -С.7.

³ Ибатуллин С.Р., Ясинский В.А., Мироненков А.П. Влияние изменения климата на водные ресурсы в Центральной Азии. Отраслевой обзор. Евразийский Банк развития, 2009. – С.9.

uchun suvni yozda yig'ib asosan qishda foydalanish zarur. Birinchi guruhda To'qtagul (Qirg'iziston) va Nurek (Tojikiston) suv omborlari tegishli ravishda 20 va 10 mln.m³ suv hajmiga ega. Markaziy Osiyo masalalari bo'yicha yaponiyalik ekspert Tetsuji Tanaka Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalarini tahlil qilar ekan, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik bo'yicha aniq loyihibar 5 ta muhim omillarni qamrab olishini ta'kidlagani holda, ularning ichida 2 ta masala bevosita ekologik xavfsizlikni ta'minlashga oidligi qayd yetib o'tadi. Bular: suv-energetika resurslaridan birgalikda foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishning qo'shma tizimini shakllantirishdir.¹ O'zbekiston istiqlolga erishgan paytdan boshlab Markaziy Osiyo suv-energetika resurslarini birgalikda boshqarish sohasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar va mintaqaviy tashabbuslarda faol ishtirok yetib kelmoqda. Bir qator hukumatlararo hujjatlarning imzolanishi Orol havzasidagi mamlakatlar o'rtasida muloqot va hamkorlikni mustahkamlashda muhim omil bo'ldi. Bu boradagi dastlabki qadam sifatida 1991 yil oktyabr oyida Markaziy Osiyo davlatlarining suv xo'jaligi qo'mitasi boshliqlari Toshkent shahriga yig'ilib, suv resurslaridan foydalanish va uni asrash masalasini muhokama qildilar. Ekspert va olimlardan iborat katta guruhning tinimsiz mehnatlari natijasida 1992 yil 18 fevralda Almati shahrida yuqorida mintaqadavlatlarining suv xo'jaligi vazirlari hukumatlar darajasidagi kelishuvni imzolashdi. Bu kelishuv davlatlararo suv manbalaridan hamkorlikda foydalanish va uni tejash, shu bilan bog'liq masalalarni birgalikda yechadigan suv xo'jaligini muvofiqlashtirish davlatlararo Komissiyasi tuzishni qamrab oldi. Shuning bilan bir qatorda, davlatlararo «Sirdaryo va Amudaryo» suv xo'jaliklari havzalari birlashmasi (SXHB)ning aniq tamoyil va vazifalari belgilab olindi.²

2003–2008 yillarda mintaqadagi suv resurslarini tartibga solish bo'yicha umumiy hajmi 6,62 mln AQSH dollariga teng bo'lган 11 ta loyiha amalga

¹ Проблемы безопасности в Центральной Азии // Материалы международной научно-практической конференции. Ташкент: Turon-Iqbol, 2006. - С. 95.

² Давлетов С. Р. т ф. н., доцент. Марказий Осиё миңтакасида сув ресурсларидан фойдаланишнинг трансчегаравий масалалари. <http://uz.denemetr.com/docs/769/index-31540-1.html> 12.07.2013

oshirildi. Bular Orol dengizi havzasidagi suv resurslarining barqaror boshqaruvi, suv resurslarini integratsiyalashgan boshqaruvini joriy qilish, Sirdaryo suv havzalaridagi asosiy gidrouzellarni avtomatlashtirish, ma'lumotlar ba'zasini shakllantirish va boshqalardan iborat.¹ Shuni ta'kidlash joizki, 1992 yil 17 martda Xelsinkida "Transchegaraviy suv irmoqlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha Konvensiya" qabul qilingan bo'lib, uning 1-qismi 2-moddasining 1-bandida taraflarning har qanday transchegaraviy ta'sirni oldini olish, cheklash va qisqartirish uchun barcha tegishli choralar qabul qilishlari belgilab qo'yilgan. Konvensiyaning 2-modda, 2-bandi "e" qismida "Taraflar suv resurslarini ekologik asoslangan va oqilona boshqarishning, ularni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarida transchegaraviy suvlardan foydalanishni ta'minlash uchun", "s" qismida "transchegaraviy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ko'rsatish mumkin bo'lgan faoliyatini amalga oshirishda, ular transchegaraviy xususiyatlarini alohida inobatga olgan holda, oqilona va adolatli tarzda transchegaraviy suvlardan foydalanishni ta'minlash uchun barcha tegishli choralar ni qabul qilishlari" belgilab qo'yilgan.² Mintaqada suv resurslari tabiiy ravishda bir tekis taqsimlanmagani Sirdaryo va Amudaryoning yuqori qismida barpo etiladigan gidroinshootlarning ishlash tartibiga ta'sir ko'rsatadi. Mavjud irrigatsiya-energetik suv omborlaridan (To'xtagul, Qayroqqum, Kurpsoy, Nurek, Boypazin va boshqalar) yelektr yenergiyasi ishlab chiqarish tartibida foydalanishda katta manfaat bor. Gidroinshootlardan Ushbu tartibda foydalanish daryoning quyi oqimida joylashgan davlatlar bilan hisoblashmasdan toshqin davrida kuz va qishda yig'ilgan suvni qo'yib yuborish ehtimolini paydo qiladi. Vegetatsiya davrida, bahor va yozda yesa irrigatsiya-melioratsiya tizimi kerakli hajmda suv bilan ta'minlanmaydi. Bunda sun'iy ravishda suv tanqisligi muammosi vujudga keladi. Shunga qaramay, yangi suv omborlari va gidroelektr stantsiyalar, xususan,

¹ Материалы ИК МФСА. Action report of the International Fund for saving the Aral Sea for the period of 2002-2008. Dushanbe, 2008. P. 25.

² Маманазаров М. Ўзбекистонда сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва уларнинг экологик мухофазаси // Экология хабарномаси. - Тошкент, 2006. - №11. - Б.14.

Zarafshon daryosida Yavon, Vaxshda Rogun, Norinda yesa Qambarota kaskadini qurish masalalari ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqida: "Ko'plab xalqaro ekologiya tashkilotlari va nufuzli ekspertlar tavsiya qilayotganidek, Ushbu daryolardan shu miqdordagi energetika quvvatlarini olish uchun nisbatan xavfsiz, ammo ancha tejamkor kichik GESlar qurilishiga o'tish oqilona yo'l bo'lur yedi", deya ta'kidlagani bejiz emasyu.¹ Transchegaraviy suv havzalaridan foydalanish bo'yicha qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikda tegishli choralar ko'rilmasa, bu hol daryolarning quyi oqimida joylashgan mamlakatlar uchun bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, yetarlicha suv bilan ta'minlanmaslik, ayniqsa, sug'oriladigan dehqonchilikka jiddiy ta'sir ko'rsatib, yer sho'rланishing keskin ortishi, hayvonot va o'simlik dunyosiga ziyon yetishi, tabiiy o'zanlarning yo'q bo'lib ketishi, yer osti chuchuk suv zaxiralarining kamayishi kabi bir qator ekologik muammolar yuzaga keladi. Darhaqiqat, bugungi kunda Markaziy Osiyodagi daryolarning yuqori qismida gidrotexnik inshootlar qurish bo'yicha sobiq ittifoq davrida ishlab chiqilgan loyihalarni qayta tiklashga qaratilgan urinishlar bo'lib, qo'shni mamlakatlarda Rogun va Qambarota GESlari qurilishini tegishli tartibda davom yettirishga harakat qilinmoqda. Tojikistondagi Rogun GESida balandligi 335 metrlik to'g'on qurish ko'zda tutilmoqda. So'nggi 110 yil mobaynida bu yerda 20 dan ortiq kuchli zilzila qayd etilgan. Mabodo to'g'on o'pirilgudek bo'lsa, boshlang'ich nuqtada suv to'lqinining balandligi 250 metrdan oshadi, Rogun GESidan 1,5 ming km uzoqda joylashgan Qoraqalpog'istonda yesa 6–7 metrga yetadi. Tojikiston, Afg'oniston, Turkmaniston va O'zbekiston hududidagi 1,5 mln hektar maydon, 700 dan ortiq aholi punkti, 5 mln aholi istiqomat qiladigan hudud suv ostida qolish xavfi bor. Hatto, eng qulay vaziyatda ham Rogun GESining

¹ Ислом Каримовнинг БМТ саммитининг Мингийиллик ривожланиш масалаларига бағишиланган ялпи мажлисида сўзланган нутки // Халқ сўзи. – 2010. - 22 сентябрь.

ko'zda tutilayotgan energetik rejimda ishlashi Amudaryo quyi qismida yashayotgan ko'p millionli aholi turmush sharoitining keskin yomonlashuviga olib keladi. Daryoda suvning minerallashuvi 2 baravar ortadi, vegetatsiya davrida uning oqimi ancha kamayadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, qishloq xo'jalik yekinlari, aralash qayta ishslash tarmoqlari va baliq resurslarining nobudgarchiligi tufayli ko'rildigan zarar 5 yil ichida qariyb, 20,6 mld AQSH dollarini tashkil etadi. Bu borada bir qator xalqaro ekspertlar va mutaxassislar Rogun GESi qurilishi Markaziy Osiyo davlatlari uchun halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tishgan. Xususan, Pokiston Respublikasining "Melsoc Internatianal" kompaniyasi direktori M. Abbos Xan fikricha, Rogun GESi qurilishi bo'yicha Tojikiston hukumatining loyihasi ancha eskirganini, uni boshlashdan oldin salbiy oqibatlarini chuqr o'rganish lozimligini ta'kidlaydi.¹ Frantsiyalik mutaxassis J. Barra GESning qurilishi bo'yicha qator omillarni tahlil qilib, bu jarayonni "o'z joniga qasd qilishdan boshqa narsa emas", - degan fikrni bildirib o'tadi.² Rossiya siyosiy konyunktura markazining tashqi siyosat bo'yicha eksperti Yevgeniy Voykoning fikricha, bugungi kunda Markaziy Osiyoda energetika xavfsizligini ta'minlash, shak-shubhasiz, terrorizm va narkobiznesga qarshi kurash kabi global muammolar qatoridan o'rin olmoqda. Mana shu sababga ko'ra, xalqaro jamoatchilik (nafaqat ekspertlar, balki siyosatchilar ham) Rogun GESi qurilishi bilan bog'liq ravishda yuzaga kelayotgan vaziyatga alohida diqqat-e'tibor qaratmoqda.

2010 yil 17 noyabrda Toshkentda "O'rta Osiyoning transchegaraviy ekologik muammolari: ularni hal etishda xalqaro huquq mexanizmlarini qo'llash" bo'yicha xalqaro konferentsiya bo'lib o'tdi. Unda Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Ispaniya, Italiya, Kanada, Xitoy, Janubiy Koreya, Gollandiya, Rossiya, AQSH, Turkiya, Ukraina, Frantsiya, SHveytsariya, Yaponiya kabi 30 mamlakatdan ekspertlar, olimlar, ekologlar, BMT, EXHT, Jahon sog'lijni

¹ Итоговые материалы международной конференции «На встречу 6- му Всемирному Водному Форуму- совместные действия в направлении водной безопасности». Ташкент. - 2011 (май). - С.94.

² Барра Ж. Геополитика водных ресурсов в Узбекистане: взгляд французского географа. (www.cawater-info.net/6wwf/conference.../papers.htm).

saqlash tashkiloti, Jahon banki, Jahon yovvoyi tabiat fondi, Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi kabi 60 dan ortiq xalqaro tashkilotlar va moliya institutlaridan vakillar qatnashdi.¹ Konferentsiya yakunlari bo'yicha Toshkent ekologiya deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda mintaqqa davlatlari transchegaraviy daryolar oqimida joylashgan boshqa davlatlarga zarar yetkazmaslik uchun bunday daryolardan foydalanishning asosiy printsiplari belgilangan asosiy xalqaro huquq hujjatlariga muvofiq transchegaraviy hamkorlikka riosa qilishi lozimligi qayd etilgan². Xulosa shundan iboratki, O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab Markaziy Osiyo suv-energetika resurslarini birgalikda boshqarish sohasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar va mintaqaviy tashabbuslarda faol ishtirok yetib kelmoqda. Zero, mamlakatda ekologik xavfsizligini ta'minlash Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu holat mintaqadagi suv resurslaridan birgalikda foydalanish, atrof-muhit ifloslanishining transchegaraviy muammolari, Orol qurishi oqibatlarini bartaraf yetish va Orol dengizi havzasini ekologik jihatdan sog'lomlashtirish bo'yicha hamkorlikda bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish orqali namoyon bo'ladi. Shunday sharoitda Tojikiston hukumati tomonidan Rogun GESi loyihasini qayta jonlantirish hatti-harakatlari butun mintaqqa aholisini xavf ostida qoldirish Sharoitini yuzaga keltirgani holda Ushbu muammoni xalqaro huquqiy me'yorlar asosida xal qilishni taqozo etadi.³

2018-yilning 5-8 iyun kunlari O'zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi tashabbusi bilan "Markaziy Osiyoda atrof-muhit va barqaror rivojlanish sohasida hamkorlikni mustahkamlash" mavzusida bo'lib o'tadigan Markaziy Osiyo xalqaro ekologik forumiga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

¹ Press service of Ecological movement of Uzbekistan: International conference «Transboundary ecological problems of Middle Asia: Application of international legislative mechanisms for their solution» (17 November 2010).

² Рахимов И.Х., Хамраев Ш.Р. Водные ресурсы в бассейне Арала // Экология и статистика. Сб. статей. (www.ireco.ru).

³ Водные ресурсы бассейна Аральского моря. 06.06.2009. <http://ec-ifas.org/index.php/ru/2010-05-17>

2.2. Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligida hududiy yaxlitlikning ahamiyati va istiqbollari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan Markaziy Osiyo mintaqasida o'zaro iqtisodiy ijtimoiy, siyosiy munosabatlarni qaytadan shakillantirshiga zarurat tug'ildi. SSSR parchalanishi natijasida bir tarafdan, turli geosiyosiy yo'nalishlarga moyillik, ya'ni milliy davlatchilik siyosiy tizimlarining shakllanishi, siyosiy madaniyat o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot kabi tafovutlarni keltirib chiqardi. Ikkinchi tomondan, qardosh xalqlarning o'zaro yaqinlashuviga olib keluvchi omillar-milliy madaniy uyg'unlik, kelishilgan iqtisodiy dasturlarni joriy qilish, suv energetik resurslardan birgalikda foydalanish, mintaqaga tahlluqli muammolarni birgalikda hal etish, yo'nalishlarda faoliyat olib borishga imkoniyat tug'dirdi. Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillikka erishishlari natijasida dunyoning ko'plab mamlakatlari bu mintaqada Rossiya ta'sirini susayganligini anglaydilar va mintaqqa davlatlarini o'z doiralariga tortishga qaratilgan siyosat olib borishga kirishadilar.

Shu bois bugungi kunda xalqaro siyosiy doiralarda tadqiqot markazlarida Markaziy Osiyoning kontseptual tushunchasi qaytadan ko'rib chiqilmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi Yevrosiyo qit'asining strategik muhim mintaqalari bilan chegaradosh. Mintaqaning sharqida-Xitoy va Osiyo Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari; janubida Afg'oniston, G'arb va Shimolida-Kavkaz, Turkiya, Yevropa, Rossiya joylashgan. Bu borada O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A. Karimov shunday deydi: "Biz Rossiya, Xitoy, Hindiston, Sharq va G'arb mamlakatlarini bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari yuzaga chiqadigan mintaqaning bir qismimiz. Aslida shakllanib kelayotgan lekin juda kuch qudratli, XXI asrning qiyofasini shubhasiz belgilab beradigan bu kuch markazlari ana Shu mintaqada o'z manfaatlarini izlaydi"¹. 90-yillarning boshlarida ko'plab xorijiy siyosatshunoslar Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlarning jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli kirib borishlari yo'lidagi amalga oshirilishi lozim

¹Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизлика таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –Б.12.

bo'lgan milliy totuvlik va iqtisodiy islohotlarni o'tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlar o'tkazish borasidagi qobiliyati va imkoniyati yetarli emasligi borasida pessimistik fikrlar bildirdilar.¹

Tojikistondagi fuqarolar urushi, Afg'onistonidagi holatning tobora og'irlashib borishi, mintaqaning ayrim nuqtalaridagi millatlararo ziddiyatlar, an'anaviy iqtisodiy aloqalarning uzilishi va buning natijasida iqtisodiy ko'rsatkichlarning keskin tushib ketishi ularning fikrlarini isbotlagandek bo'ldi. Ammo demokratik jamiyat qurish jarayonida Markaziy Osiyo davlatlari o'z suvereniteti va hududiy birliklariga qarshi yuzaga keluvchi har qanday omillarni bartaraf eta olishlarini ko'rsatmoqdalar.

Siyosiy sahnaga yangi mustaqil davlatlarning chiqishi nafaqat Yevroсио xaritasiga, balki mafkuraviy siyosiy, iqtisodiy va xalqaro munosabatlar tizimlarida keskin o'zgarishlarga olib keldi. Bu borada 50 mln.dan ortiq aholi va 4 mln kv.km.dan ortiq hududga ega besh Markaziy Osiyo respublikalari – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston. Tojikiston, Turkmaniston Makinder ta'rifi bo'yicha "tarixning geografik o'qi" yoki "o'zak makon"da qulay siyosiy iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarga ega bo'ldilar. Biroq aytish joizki, mazkur davlatlar uchun milliy davlatchiliklarini bunyod etish, siyosiy yo'naliishlarni to'liq ishlab chiqish, ijtimoiy qurilishiga qaratilgan amaliy jarayonlarda ba'zi murakkabliklar mavjud.

Markaziy Osiyo mintaqasi o'ziga xos geosiyosiy tashqi chegaralarga ega. Bu holatda ikki omil – Rossiya va Xitoy o'rtasida "qisilib qolganlik" va janubda islom olami bilan belgilanadi. Boz ustiga, geografik nuqtai nazardan tabiiy chegaralar g'arbda Kaspiy dengizining qirg'og'i bo'ylab. Sharqda Djung'or Alatoui, Tyang-Shan tog'lari, shuningdek, janubda Xuroson tog'lari, Amudaryo, Panj va Atrek daryolari bilan belgilanadi.

Shu munosabat bilan taxminan 1993 yildan boshlab mintaqaning jahon geosiyosiy muhiti bilan o'zaro bog'liq ekanligi omili ham katta ahamiyatga ega

¹Касенов У. Окажется ли Центральная Азия в водовороте геополитически игр // Азия, январь 1999. –С.3.; Соловьев С. Центральная Азия. Геополитические контуры. // Международная жизнь. –1993. –№3. – С.12.

bo'lib, geosiyosiy nuqtai nazardan Markaziy Osiyo tushunchasiga mintaqadagi besh respublikaning siyosiy chegaralari doirasidagi maqom asos qilib olindi¹.

Jahondagi kuchlar nisbati va uning Rossiya o'rtasidagi muvozanati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar siyosati va ulardagi voqealar rivoji qaysi yo'ldan borishiga bog'liq. Hozirgi xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangicha tartibini shakllantirish jarayonida ishtirok etayotgan respublikalar buni e'tirof etmasliklari mumkin emas².

Mustaqillikni qo'lga kiritgan Markaziy Osiyo respublikalarini bugungi kundagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy rivojlanishlari va ularning geosiyosiy holatlari, shuningdek, xavfsizlik qirralari o'zaro mos tushadi. Shu bois, Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy muhitning o'zaro ko'rib chiqilishiga quydagi to'rt mezon sabab bo'lishi mumkin:

Birinchidan, bugungi kunda davlat xavfsizligining mintaqqa xafsizligi darajasigi ko'tarilganligi;

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari bir-biri bilan tarixiy, diniy, ma'naviy va madaniy jihatdan yaqinliklari;

Uchinchidan, iqtisodiy jabha, ya'ni Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy tomondan rivojlanishi Shu davlatlarning o'zaro iqtisodiy integratsiyasini mumkin qadar takomillashtirishni talab qiladi;

To'rtinchidan, iqtisodiy omillardan kelib chiqqan holda, Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro hamkorligi jahon davlatlarida qiziqish uyg'otmoqda.

Fredrik Starr "Yevrosiyoda barqarorliklikni o'rnatish" nomli maqolasida Markaziy Osiyo mintaqasida voqealar rivoji quyidagi uch yo'nalishda borishi mumkunligini aytib o'tadi:

¹Белокреницкий В. Геополитическая вертикаль в сердце Азии // Pro et contra. Весна 1997. Т.2. Распад и рождение государств. <http://pubs.carnegie.ru/p.&zc/vol2-1997/2F.default.asp?n=08belokren.asp>

²Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –Б.8.

Birinchidan, mintaqqa bir yoki bir necha davlatlar tag'sir doirasiga tushib qolishi mumkin. Uning fikricha, bu borada Rossiya qulay nomzod sifatida qaralishi mumkin.

Ikkinchidan, mintaqqa Afg'oniston va Tojikiston davlatlaridagi tartibsizliklarga o'xshagan holatga tushib qolishi mumkin.

Uchinchidan, barqaror davlatlarning yuzaga kelishi natijasida ichkaridan mutanosiblik kelishuvchanlikka erishish (integratsiyalashuv jarayoni nazarda tutiladi).

F. Starr fikricha Markaziy Osiyo mintaqasida bir yoki bir necha kuchli davlatlar yuzaga kelib vaziyatni barqarorlashtirishi mumkin. Starr o'z fikrini davom ettirib, Markaziy Osiyo davlatlari orasida faqat O'zbekistongina ana shunday barqarorlashtiruvchi vazifasini bajarishi mumkin. Bu kabi fikrni amerikalik siyosatshunos olim Z. Bjeziynskiy ham keltiradi.¹ Markaziy Osiyo mintaqasiga geosiyosiy nuqtai nazardan qaraganda ikki muhim omil – geostrategik holati va boy tabiiy resurslar bu mintaqaning iqtisodiy va siyosiy o'lchamlarini yanada keng aytirib borishini kuzatish mumkin.

Qayd etish joizki, mintaqada hamkorlikni o'rnatish birinchi navbatda mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgandir. Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy va ijtimoiy barqarorlik, hamkorlik masalalari bilan behvosita bog'liq. Ammo, O'zbekiston o'zining jug'rofiy-siyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilmagan mintaqada joylashgan. Bu ham tahdid tug'diruvchi sababdir.² Sobiq SSSRning parchalanishi va iqtisodiy aloqalarning uzilishi natijasida O'zbekiston va mintaqaning boshqa davlatlari oldida birinchi navbatda hal qilinishi lozim bo'lgan ikkita muammo paydo bo'ldi: Birinchi muammo - jahon bozoridan uzoqligi sababli iqtisodiy jihatdan ajralib qolganlik va, ikkinchi muammo - rivojlangan mamlakatlar bilan siyosiy aloqalarning sustligi.

¹ Бжезинский З. Великая Шахматная доска. Господство Америки его хостратические императивы. – М.:Междинародные отношения, 1999. –С.56-57.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –Б.12.

Shu holat mintaqasi davlatlarini mustaqillikning birinchi kunlarida tashvishga solgan bo'lsa, bora-bora bu muammolar o'z yechimini topa boshladi.

Bugungi kunda xalqaro maydonda ro'y berayotgan o'zgarishlarda uch holatni qayd etib o'tish lozim:

Birinchidan, iqtisodiyotning globallashuvi va o'zaro bog'liqlikning kuchayishi;

Ikkinchidan, milliy va mintaqaviy masalalarini hal etishda davlat ro'lining o'zgarishi;

Uchinchidan, xalqaro tashkilotlar va institutlar ahamiyatining ortib borishi.¹

Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi quyidagi afzalliliklarga ega:

-mintaqaning energetik, mineral va qishloq xo'jaligi

-mahsulotlarining deyarli barcha turlari bilan ta'minlanganligi;

-katta ilmiy-texnikaviy ishlab chiqarish va ekspert salohiyatiga egaligi;

-qulay geosiyosiy holatga egaligi;

-ishchi kuchining arzonligi;

-suv va boshqa tabiiy xom ashyolardan o'zaro va umumiy foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari.

Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillikdan keyingi davrdagi ijtimoiy siyosiy taraqqiyotining geosiyosiy va geoijtisodiy shakllanishi jarayonini kuzatgan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Avvalo, ular oldida mustaqillikka erishgandan so'ng siyosiy rivojlanishning ustuvor yo'naliishlarini, ya'ni xalqaro munosabatlar tizimida munosib o'rinni egallash, taraqqiyot yo'llarini ishlab chiqish va bu borada hamkorlar topishga qaratilgan intilishlar ko'zga tashlanadi.

Bu hol natijasida Markaziy Osiyo mintaqalarida geosiyosiy bo'shliq paydo bo'lganligini qayd etib o'tish lozim:

Birinchidan, mintaqada AQSH, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Eron, Hindiston, kabi mamlakatlarning qiziqishi tobora ortib bormoqda. Ko'p qutbli xalqaro

¹ Jakobson D. Nations, New World. Conception of World Order. –Boulder: Westwived Press, 1994. –P.214.

munosabatlar tizimining shakllanishi natijasida Markaziy Osiyo mintaqasi qator faol geostrategik ishtirokchilar tomonidan “Hayotiy muhim” hudud ekanligi bir necha bor aytishiga qaramasdan, ulardan biror biri mintaqada yetakchi vazifasini bajara olmaydi.

Ikkinchidan, 1994-1996 yillardagi Markaziy Osiyo davlatlarning mintaqalari doirasidagi o’zaro yaqinlashishi bilan bog’liq. Mazkur jarayonni qay tariqa amalga oshirish borasida esa ma’lum bir qarama-qarshiliklar mavjud. Ular asosan ijtimoiy yo’nalishni o’z ichiga qamrab olib, jamiyat taraqqiyotida bir tomonidan demokratik tamoyillarni joriy etish masalasini, ikkinchi tomonidan esa jamiyat ma’naviyati bilan o’zaro bog’liq bo’lgan diniy qadriyatlar muammosi bilan bog’liq.

Mustaqillikdan keyingi davrda Markaziy Osiyo davlatlari oldida taraqqiyotning faqat ikki yo’li “Turk” va “Eron” borligi xususida fiklarlar bildiriladi.

Uchinchidan, bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy guruhlanishi (tabaqalanish), mintaqalari yagona ijtimoiy-siyosiy yo’nalishlarning yo’qligi istiqbol borasida biror-bir yagona to’xtamga kelishi mushkuldir. Mazkur jarayonga tashqi kuchlar omilini, ya’ni o’q ta’sir doiralarini keng aytirish, shuningdek, tabiiy xom ashyo resurslari ustidan nazorat o’rnatishga qaratilgan raqobatning kuchayishini ham e’tiborga olish lozim.¹

Markaziy Osiyo davlatlari holatini tushunish uchun har bir davlatda ro’y berayotgan ichki o’zgarishlarning umumiyy va o’ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy, iqtisodiy formatsiyalarni almashinuvini e’tiborga olish kerak. Jahon tajribasi yangi tizim va ijtimoiy qatlamlar eski ijtimoiy munosabatlarning parchalanish jarayoniga nisbatan sekinlik bilan taraqqiy topadi. Bu holat esa jamiyatning o’tish davrida keskinlikni tug’dirishga olib keladi va marginaliztsiya holati, ya’ni o’zida salbiy ijtimoiy zaryadni olib yuruvchi “oraliq” holatdagi ya’ni ijtimoiy qatlamlarning shakllanishi yuzaga keladi. Markaziy Osivodagi ijtimoiy muammolar o’z navbatida davlatlararo munosabatlarga ta’sir ko’rsatib, keskinlik manbai bo’lishi mumkin.

¹ Средняя Азия в системе современных международных отношений. // Восток. –1993. –№5. –С.163-169.

Milliy davlatchilikni bunyod etish va Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatdagi asosiy yo'nalishi jarayonlarini tahlil etgan holda quyidagi umumiyl xususiyatlarni ta'kidlab o'tish lozim:

1. Qozog'iston Rossiya, Xitoy va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari orasida qisilib qolganligi, bu esa iqtisodiy holatdagi nochorlik bilan birgalikda tashqi siyosatda yagona umummilliy yo'nalishini ishlab chiqishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Bundan kelib chiqqan holatda Qozog'iston siyosatida Rossiya bilan integratsiyalashish hisobiga Markaziy Osiyo integratsiyalashuv jarayonidan uzoqlashishni kuzatish mumkin. Biroq, Rossiya bilan integratsiyalashish jarayoni Qozog'iston suverenitetiga va hududiy yaxlitligiga raxna solishini e'tiborga olsak, u holda u global va mintaqa darajalaridagi iqtisodiy aloqalar va xalqaro munlosabatlar tizimida o'z o'rnini saqlab qolish maqsadida Markaziy Osiyo integratsiyasida ishtirokini saqlab qoladi.

2. Qirg'iziston milliy davlatchiligini barpo etar ekan, ob'ektiv sabablarga ko'ra aniq shakllangan ichki va tashqi siyosati nisbatan mavjud deb aytishga imkoniyat tug'diradi. Qirg'iziston mamlakatida o'tkazilgan iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi va moliyaviy jihatdan ko'mak beruvchi barcha mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Mintaqadagi yagona iqtisodiy makon dasturida ishtirok etish Qirg'izistonga bir tomonidan ichki bozorni ko'tarish imkoniyatini bersa, ikiinchi tomonidan mintaqada o'ziga mos o'rinni egallahsga sharoit yaratadi. Shu bilan birga Qirg'iziston Rossiya bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatishdan manfaatdor. Mazkur holat bir tomonidan siyosiy ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomonidan Rossiyadan qarzdorlik masalasi bilan ham bevosita bog'liq.

3. Turkmaniston "betaraflik" maqomini olganligiga qaramay Rossiya Eron va boshqa davlatlarning ustuvor manfaatlari ob'ekti bo'lib qolmoqda.

Boy tabiiy resurs va iqtisodiy taraqqiyotining istiqboliga ega bo'lgan Turkmaniston mintaqa integratsiyasida faqat iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqqan holda yondashmoqda.

4. Tojikiston bir necha yil mobaynida siyosiy va iqtisodiy inqiroz changalida qolib ketdi. Mamlakatdagi fuqarolar urushi, Rossiyaning harbiy ko'magiga tayanish mamlakat ichki va iqtisodiy ahvolining yaxshilanishga salbiy ta'sir etuvchi omillar sifatida qarash mumkin.

5. Markaziy Osiyo markazida joylashgan **O'zbekiston** mintaqasining barcha mamlakatlari bilan tutash. Bundan tashqari mintaqadagi deyarli barcha kommunikatsion-transport infrastrukturasi, aloqa va energetik tizimlar O'zbekiston hududida joylashgan. Bu hol O'zbekistonning geosiyosiy holatini belgilab beradi.

Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy va tashqi siyosiy tamoyillaridan o'ziga xoslik va farqlariga qaramay, ularni hamkorlikka undovchi ma'lum ob'ektiv holatlar mavjud. Bular-avvalo xavfsizlik, iqtisodiyot va ekologiya masalalari bilan chambarchas bog'liq. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, chetdagi davlatlar manfaat va maqsadlarga va bu borada o'zaro raqobatlari Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligiga, ularning jahon hamjamiyatiga kirish jarayoniga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Hududiy mansublikdan kelib chiqqan holda yangi mustaqil davlatlar bir-biri bilan uzviy tarzda bog'liq bo'lib, transport infratuzilmasi, energota'minot masalalari ekologiya, xom-ashyoni qayta ishlash masalalari yuzasidan uzoq muddatli dastur va loyihalarni ishlab chiqishni talab etadi. Boz ustiga narkotik va qurol-yarog' savdosi kabi jinoiy unsurlarga qarshi kurash bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

Mazkur jarayon borasida quyidagi senariylarni tahlil qilish mumkin.

Buyuk Ipak Yo'lining qayta tiklanishi.

Ijobiy tomoni – mintaqqa istiqbolida savdo-transport borasida Yevropa, Yevroсиyo iqtisodiy ittifoqligini Xitoy va Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan bog'lashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonning salbiy tomoni transport infratuzilmasini yetarli darajada taraqqiy etmaganligi.

Yuksak darajada Integratsiyalashgan Markaziy Osiyoning mintaqasi - jahon siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsata oluvchi hamdo'stlik va konfederatsiya shaklidagi qudratli davlat yuzaga kelishi. Salbiy tomoni- integratsiyaviy jarayonlar

mexanizmining mukammal ishlab chiqilmaganligi, shuningdek, tashqi omil ta'sirining kuchliligi.

Madaniyatlar to'qnashuvchi mintaqada davlatlarining Eron taraqqiyoti yo'liga o'tishlari, mintaqada istiqomat etuvchi g'ayriddinlar manfaatiga qarshi chiqishi. Boz ustiga Rossiya Federatsiyasi bilan ziddiyatlar holatining yuzaga kelishi. Salbiy tomoni - mintaqada Islom, Xristianlik va boshqa diniy madaniyatlarining kesishganligi. Aynan shu holat borasida AQSH Davlat kotibi S.Telboot Markaziy Osiyodagi jarayonlar rivoji nafaqat "sovettardan keyinga maqomda" balki, Xitoy, Turkiya, Eron va Afg'onistonidagi jarayonlarga yuqori darajada ta'sir ko'rsatishini aytib o'tgan edi.¹

"Katta og'a" yo'nalishi - mintaqada davlatlarining biror-bir davlat (Rossiya, Xitoy) ta'sir doirasiga tushib qolishlari mazkur tendentsiyaga mintaqada mustaqillikdan keyingi davrda milliylikning kuchayib ketganligi qarshi turishi mumkin.

Mintaqada Bolqon stsenariysining taraqqiy etishi. Markaziy Osiyo davlatlari orasida dezintegratsiyaning avj olishi va izollyatsionistik g'oyalarining kuchayishi². Bu holda mintaqada davlatlarining bir vaqtning o'zida turli davlatlar ta'sir doirasiga tushib qolishlari. Salbiy tomoni- mintaqada o'zaro bog'liq chegara, suv kabi masalalar borasida ziddiyatlar va to'qnashuvlar avj oladi.

Mazkur omillarga tayangan holda AQSH prezidentining xavfsizlik masalalari bo'yicha sobiq maslahatchisi Z.Bzejinskiy Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlarini, shuningdek Afg'onistonni "Yevroosiyo Bolqonlari" sifatida baholaydi.³

Markaziy Osiyo davlatlari shakllanish jarayonida dunyo mamlakatlari bilan munosabatlarni shakllantirish muhim masalalar sirasiga kiradi. Biroq, bu jarayon faqat mintaqada mamlakatlari manfaatlari va pozitsiyalari bilangina belgilanib

¹ Tallbott S. The Great is Game Over// Financial Times, 1 September 1997.

² Абазов Р. Геополитическая и геоэкологическая Трансформация Центральной Азии Европы: сравнительный анализ// Саясат. –1995. –№7. –С.68-83.

³ Bizeinski Z.B. The Grand Chessboard, American Primacy and Geostrategic Imperatives. –Wash., 1997. –P.125.

qolmaydi. Aksincha, ularga tashqi siyosiy kuchlarning ta'siri katta. Shu bois yetakchi davlatlar va mintaqa davlatlari, yoki boshqacha aytganda “geostrategik ishtirokchilar” yondashuvini o’rganishga zarurat sezilmoqda.

2017-yil 10-noyabr kuni Samarqand shahrida BMT shafeligida “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo’lidagi hamkorlik” mavzusida xalqaro konferensiya ish boshladi.¹

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida ilgari surilgan hamda Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta’minalash, jtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga yo’naltirilgan tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha muhim amaliy qadamlardan biri bo'lgan mazkur yirik xalqaro tadborda 500 dan ortiq ishtirokchilar, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosat mahkamalari rahbarlari, MDH, Yevropa, Osiyo hamda Amerika davlatlarining nufuzli rasmiy delegatsiyalari, BMT, YeI, YeXHT, SHHT, MDH, YeTTB kabi 10 dan ortiq xalqaro tashkilotlar rahbariyati, 100 ga yaqin taniqli xalqaro ekspertlar va yetakchi xorijiy OAV xodimlari, shuningdek, O’zbekistonda akkreditatsiyadan o’tgan diplomatik korpus vakillari qatnashdilar.

Forumda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so’zladi.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda osoyishtalik hamda barqaror taraqqiyotga erishish yo’lida amalga oshirilayotgan faol tashqi siyosat, mintaqada xavfsizlikni ta’minalash borasidagi muhim vazifalar haqida to’xtalib, qator dolzarb tashabbuslarni ilgari surdi.

Anjumanda, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrishning forum ishtirokchilariga yo’llagan videomurojaati namoyish etildi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шахрида ўтган “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараккиёт йўлидаги хамкорлик” мавзусидаги халқaro конференцияда сўзлаган нутки. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-sama-10-11-2017>

BMT rahbari anjuman ahamiyati haqida alohida to'xtalib, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'lidagi tashabbuslarda BMT tuzilmalari faol ishtirok yetishini ta'kidladi.

Markaziy Osiyonи osoyishtalik, barqaror taraqqiyot hamda yaxshi qo'shnichilik hududiga aylantirish yurtboshimiz tomonidan O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Bu 2017—2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilingan va undagi beshta ustuvor yo'nalishida ham o'z ifodasini topgan. Chunonchi, Ushbu dasturilamal hujjatda O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik, ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish yaqin istiqboldagi ustuvor vazifa sifatida mustahkamlangan. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan Markaziy Osiyo — O'zbekiston intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir.

Markaziy Osiyo mamlakatlari jug'rofiy hamda geosiyosiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib qolmasdan, balki yagona madaniyat va sivilizatsiya makoni hamdir. Bu yerda istiqomat qiluvchi xalqlarni umumiy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, mushtarak an'ana va urf-odatlar, yagona tarix bog'lab turadi. Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan mintaqqa ming yillar davomida dunyo madaniyatları, tillari hamda dinlari muloqotiga zamin bo'lgan.

O'zbekiston bugun yaqin qo'shnichilik, do'stlik tamoyillariga tayangan holda faol va pragmatik siyosat olib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi tufayli mintaqqa mamlakatlari bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-logistika hamda madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik aloqalari jadal sur'atlarda rivojlanib borayapti.

Yurtboshimizning qo'shni mamlakatlarga amalga oshirgan davlat va amaliy tashriflari davomida, shuningdek, turli xalqaro sammitlar doirasida qo'shni mamlakatlar rahbarlari bilan muntazam ravishda o'tkazib kelayotgan muloqotlari samarasi o'laroq, o'tgan qisqa vaqt mobaynida Markaziy Osiyoda prinsipial jihatdan mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi. Strategik sherik davlatlar safi kengaydi.

O'zbekiston mintaqa mamlakatlari bilan eng nozik masalalar yechimida, ayniqsa, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish borasida pragmatik yondashib, tarixiy kelishuvlarga erishmoqda. Misol uchun, o'zbek-qirg'iz davlat chegarasining qariyb 85 foizi bo'yicha shartnomaga imzolandi.¹ Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, tomonlar o'z siyosiy irodasini, o'zaro maqbul qarorlar qabul qilishga tayyorligini namoyon etgani bois uzoq muddat davomida birinchi marta ushbu g'oyat nozik masala bo'yicha oldinga siljish yuz berdi.

Qo'shni mamlakatlar bilan chegaralardagi nazorat-o'tkazish punktlari faoliyati qayta tiklanishi natijasida aholi emin-erkin harakatlanishi uchun yengilliklar yaratilayapti. Bu yesa odamlarning qo'shni davlatlardagi yaqinlari, qarindosh-urug'lari bilan bordi-keldi aloqalari yo'lga qo'yilishiga, yana bir muhim jihat, o'zaro savdo-sotiqning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyoda savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalarida ham faol o'sish sur'atlari qayd yetilmogda. Xususan, 2017-yilning mart oyida O'zbekiston va Qozog'iston ishbilarmon doiralari ishtirokida Ostona shahrida bo'lib o'tgan biznes forumida umumiyligi qiyati qariyb 1 milliard AQSH dollariga teng savdo shartnomalari hamda investitsiyaviy bitimlar imzolandi. Mamlakatlar o'rtasida o'zaro tovar ayirboshlash hajmini 5 milliard AQSH dollarigacha yetkazish bo'yicha aniq maqsadlar belgilab olingan. O'zbekiston va Qirg'iziston hamkorlik munosabatlarida ham iqtisodiy sohada yangi marralar qo'lga kiritilmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2016 yil oxiriga kelib 23 foiz o'sgan holda, 167,5 million AQSH dollarini tashkil yetgan bo'lsa, 2017 yilning birinchi yarmida bu ko'rsatkich qariyb 70 foiz oshib, 112 million AQSH dollarini tashkil qildi. Oliy darajadagi uchrashuvlarda mazkur ko'rsatkichni yaqin yillarda 500 million dollarga yetkazish imkoniyati mavjudligi qayd etildi. O'zbekiston hamda Turkmaniston kompaniya va korxonalari qiyati 200 million dollardan ziyod qo'shma tashqi savdo shartnomasi hamda bitimlarni amalga oshirmoqda. Turkmanobod — Forob avtomobil va temir yo'l ko'priklari ochilgach,

¹ Шавкат Мирзиёев Марказий Осиё давлатлари учун муносаб келажакни таъминлашнинг олтига йўналишини маълум қилди. <http://www.azon.uz/content/views/shavkat-mirziyev-markaziy-osiyo-davlatl>

mamlakatlarimiz o'rtasida tranzit tashishlar hajmi sezilarli darajada ko'paydi. O'zbekistonning faqat temir yo'l orqali Turkmaniston hududidan o'tgan eksport yuklari hajmi 25 foiz oshdi.¹

O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalarida ham yangi davr boshlandi. 2017-yil aprel oyida Dushanbe shahrida O'zbekiston sanoat korxonalari mahsulotlari milliy ko'rgazmasi hamda ikki davlat ishbilarmonlari biznes forumi tashkil etildi. Iyun oyida O'zbekiston delegatsiyasining Tojikistonga tashrifi chog'ida Dushanbe shahrida O'zbekiston savdo uyi ochildi. Shu yil oktyabr oyida yesa Tojikiston Respublikasi milliy mahsulotlari ko'rgazma-yarmarkasi o'tkazildi. Bularning barchasi mintaqada yangi iqtisodiy muhit shakllanayotganidan dalolatdir.

Qayd etilganidek, Markaziy Osiyo energetika va tabiiy resurslarga boy, qulay transport-kommunikatsiya imkoniyatlariga ega mintaqqa hisoblanadi. O'zbekistonda transport-infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirish, tranzit yo'laklari tizimini yaratish, mavjud yirik xalqaro hamda istiqbolli bozorlarga olib chiqadigan yangi va samarali yo'nalishlarni o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilayapti. O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy temir yo'lining qurilishi mintaqqa mamlakatlari uchun ulkan iqtisodiy imkoniyatlar ochadi.²

Prezidentimiz Shanxay hamkorlik tashkilotining Ostona sammitida Markaziy Osiyoda transport tashuvlarini boshqarishning o'zaro bog'langan tizimini yaratish taklifini bildirdi. Bu taklif o'zaro transport tariflari, yagona bojaxona va boshqa tartib-taomillar, yuk tashish xavfsizligining birxillashtirilgan qoidalari, transport vositalari hamda yuklari harakatlanishi axborot tahminoti tizimining huquqiy va institutsional asoslarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Mazkur tizim iqtisodiy o'sishga, yuklarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berilishini tezlashtirish hamda arzonlashtirishga olib keladi.

¹ Samarqandda Markaziy Osiyoda xavfsizlik bo'yicha forum bo'lib o'tadi.
<https://www.gazeta.uz/oz/2017/11/07/forum/>

² Самарқанд шаҳри Марказий Осиё бўйича халқаро конференцияга мезонлик килди.
<http://parstoday.com/uz/news/uzbekistan-i25406> 11.10.2017

Qo'shni mamlakatlar chegaradosh hududlari darajasida aloqalar keng ayib borayotgani, xalq diplomatiyasi mexanizmlaridan faol foydalanilayotgani ham mintaqa davlatlari munosabatlarini mazmunan boyitmoqda. Qonun chiqaruvchi organlar o'rtasida hamkorlikni keng aytirishga alohida urg'u berilib, parlamentlararo do'stlik guruhlari shakllantirilmoqda.

Anjumanda bugungi zamonaviy shart-sharoitlarda Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash bilan bog'liq dolzARB masalalarni hal qilishda muhim rol o'ynashi ta'kidlandi. Terrorizm va ekstremizm xavfi tarqalishining oldini olish, giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanishi, noqonuniy qurol-yarog' savdosi, uyushgan jinoyatchilik, odam savdosiga qarshi kurashish hamda axborot sohasidagi tahdidlarga barham berish ana shular jumlasidandir.

Forum qatnashchilari Markaziy Osiyo xavfsizligi global xavfsizlikning ajralmas qismi ekanligini alohida qayd etishdi. Mintaqa mamlakatlari yangi tahdid va xavflarning oldini olish, shuningdek, xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarda yaqindan hamkorlik o'rnatishi maqsadga muvofiqligi bildirildi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari suv-energetika resurslaridan mintaqaning barcha davlati manfaatlarini hisobga olgan holda, oqilona foydalanish bo'yicha ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikni mustahkamlash zarurligiga e'tibor qaratishdi.

Xalqaro konferensiyada BMT Bosh kotibining siyosiy masalalar bo'yicha yordamchisi Miroslav Yencha, Yevropa ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili, Yevrokomissiya vitse-prezidenti Federika Mogerini, Qozog'iston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Qayrat Abdrahmonov, Qirg'iziston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Yerlan Abdildaev, Tojikiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Sirojiddin Aslov, Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisi o'rribosari, tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov nutq so'zлади.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi Tomas Greminger, Turkiya Respublikasi iqtisodiyot vaziri Nixat Zeybekchi, Eron Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Muhammad Javad Zarif, Afg'oniston Islom Respublikasi tashqi

ishlar vaziri Salohuddin Rabboniy, BMT Bosh kotibi yordamchisi, BMT Taraqqiyot dasturining Yevropa va MDH davlatlari bo'yicha mintaqaviy byurosi direktori Jihan Sultanoglu, SHHT Bosh kotibi Rashid Alimov, MDH Ijroiya qo'mitasi raisi — Ijrochi kotibi Sergey Lebedev, Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri o'rribosari Aleksandr Pankin, Hindiston davlat tashqi ishlar vaziri Vijay Kumar Singx, BMT Bosh kotibining maxsus vakili, Markaziy Osiyoda preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Natalya German va boshqalar so'zga chiqdi.

Konferensianing birinchi kunida "Mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash", "Suvdan foydalanish va ekologiya sohasidagi hamkorlik" mavzularida majlislar o'tkazildi. Mamlakatimiz hamda xorijlik olimlar, nufuzli ekspertlarning tahliliy mahruzalari yeshitildi va muhokama qilindi.

Forum 2018-yil 11-noyabr kuni o'z ishini davom ettiradi. Uning doirasida "Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish" hamda "Barqaror taraqqiyotga tahdidlarga qarshi kurashishda xalqaro hamjamiatning Markaziy Osiyo mamlakatlariga ko'magi" mavzularida majlislar bo'lib o'tadi.

Xalqaro konferensiya yakuni bo'yicha kommyunike qabul qilinishi rejalashtirilgan.

So'z — ishtirokchilarga Miroslav YENCHA,

BMT Bosh kotibining siyosiy masalalar bo'yicha yordamchisi:

— Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi sahy-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga doir maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini ilgari surdi. Ushbu mintaqadagi barqarorlik hamda taraqqiyot barcha uchun dolzarbdir. Shuning uchun ham BMT ushbu yo'naliшda yordam berishga tayyorligini ta'kidlamoqchiman. Biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga faqat birgalikda erishamiz.

Sergey LEBEDEV,

MDH Ijroiya qo'mitasi raisi — Ijrochi kotibi:

— MDH doirasida biz iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, madaniy-gumanitar aloqalarni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratamiz. Markaziy Osiyo

davlatlarida ulkan o'zgarishlar jarayoni kechmoqda. Ishonchim komilki, xalqaro anjumanda qayd etilgan fikr va takliflar kelgusida Markaziy Osiyonи yanada barqaror, yanada osuda hududga aylantirishga xizmat qiladi.

Frederik STARR,

Amerika tashqi siyosat keng ashi huzuridagi Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti raisi:

— Markaziy Osiyoda xavfsizlik hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha bo'lib o'tayotgan xalqaro konferensiya mintaqasi uchun yaqin qo'shnichilik, teng huquqlilik va o'zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Bu harakatlar Markaziy Osiyo davlatlari o'rtaida iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishi muqarrar.

Paolo ALLI,

NATO Parlament assambleyasi prezidenti:

— Samarqand konferensiyasi dunyoda tobora nufuzi oshib borayotgan Markaziy Osiyo mintaqasida taraqqiyotga erishish, xavfsizlik hamda hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ayni jihatdan aytganda, O'zbekiston Markaziy Osiyoning muhim davlatlaridan biri sifatida mintaqasi mamlakatlari o'rtaida munosabatlarda -bunyodkorlik g'oyalari bilan yaqqol ajralib turibdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surayotgan takliflar nafaqat mintaqasi, balki dunyo jamoatchiligi tomonidan ham ijobjiy qabul qilinmoqda. O'ylaymizki, bu tashabbuslar Markaziy Osiyoda yangi muhitni yarata oladi.¹

2017-yilning 12-noyabr kuni Samarqandda bo'lib o'tgan xalqaro anjumanda O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyoning taraqqiy yetishi va gullab-yashnashiga xizmat qiluvchi olti muhim vazifalarni sanab o'tdi.

Markaziy Osiyo davlatlari aynan yaxshi qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida eng dolzarb va muhim masalalarda o'z salohiyatini yanada samarali amalga oshira oladi. Ishonchim komil, bundan barcha —

¹ Марказий Осиё давлат раҳбарларининг биринчи маслаҳат учрашуви. <http://uza.uz/oz/politics/markaziyafaf-osiye-davlat-ra-barlarining-birinchi-masla-at-uchra-15-03-2018>

Markaziy Osiyo davlatlari qatorida boshqa mamlakatlar ham birdek manfaat ko'radi, dedi Samarqanddagi Markaziy Osiyo mintaqasiga bag'ishlangan xalqaro anjumanda so'zlagan nutqi davomida O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Mirziyoyev Markaziy Osiyoni yaqin kelajakda barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy yetgan mintaqaga aylantirishga xizmat qiladigan olti taklifni ilgari surdi.

Birinchi taklif: Biznes-diplomatiya

O'zbekiston rahbari savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmini oshirish hamda kooperatsiyani mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish kerakligini va mintaqaviy iqtisodiy forumni tashkil etish bu yo'nalishdagi amaliy qadam bo'lishi mumkinligini ta'kidladi.

Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy iqtisodiy forumini tashkil qilishni taklif etdi.

Markaziy Osiyo davlatlarining hududlar rahbarlari (hokimlari) biznes hamjamiyatining assotsiatsiyasini tahsis yetishni taklif qilaman. BMT ekspertlarining hisob-kitoblariga ko'ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtaсидаги samarali kooperatsiya aloqalari 10 yil mobaynida mintaqaviy yalpi ichki mahsulotni kamida ikki barobar oshirish imkonini bergen bo'lar edi. Ushbu mexanizmlar butun Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanishni ta'minlagan holda, mamlakatlarimiz hududlarining sanoat, investitsiya va intellektual sohalardagi salohiyatini to'la ishga solish imkonini berishiga ishonaman", — dedi prezident.¹

Ikkinci taklif: Transport diplomatiysi

Mirziyoyevga ko'ra, mintaqaning tranzit-logistika salohiyatidan yanada samarali foydalanish va transport infratuzilmasining jadal rivojlanishini ta'minlash lozim.

Markaziy Osiyo G'arb va Sharq o'rtaсидаги chorrahadan "markaz"ga aylandi - Rashid Alimov.

¹ Шавкат Мирзиёевдан Марказий Осиё бўйича «олти дипломатия» таклифи. <http://mulohaza.uz/?p=3592>

O'zbekiston rahbari bu yo'nalishda mintaqqa mamlakatlari tomonidan amaliy qadamlar qo'yilganini mammuniyat bilan qayd etdi.

"Turkmanistonlik do'stlarimiz tomonidan Amudaryodan o'tadigan Turkmanobod — Forob yangi temir va avtomobil yo'llari ko'priklari ishga tushirildi. U O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — O'mon transport-tranzit yo'nalishining muhim tarmog'idir.

Tez orada O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy temir yo'li qurilishini boshlash bo'yicha kelishuvga erishildi, shuningdek, Ushbu transport yo'lagi bo'ylab sinov tariqasidagi avtopoyga amalga oshirildi.

Shu munosabat bilan Transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha umummintaqaviy dasturni ishlab chiqish va qabul qilish zarur, deb hisoblaymiz".

Prezident umumiylar yondashuvlarni kelishib olish uchun 2018-yilda Toshkentda "Markaziy Osiyo xalqaro transport yo'laklari tizimida: strategik istiqbollar va amalga oshirilmagan imkoniyatlar" mavzusida xalqaro konferentsiya o'tkazilishi rejalashtirilayotganini aytib, konferentsiyaning ishida barcha sheriklar faol ishtiroy etishiga umid bildirdi.

Uchinchi taklif: "Preventiv diplomatiya"

Mirziyoyev bugungi kunda mintaqaning barcha mamlakatlari terrorizm, diniy ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga duch kelayotgani, Ushbu tahdidlarga qarshi samarali kurashishni faqat birgalikda, mintaqqa mamlakatlari o'rtaqidagi amaliy hamkorlik mexanizmlari doirasida ta'minlash mumkinligini aytdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtaida 2018-2019 yillar uchun hamkorlik dasturi imzolandi.

"Xavfsizlikka tahdidlarni "o'ziniki va o'zgalarniki" deb ajratishdan voz kechish, "yaxlit xavfsizlik" tamoyiliga amalda rioya qilish zarur, degan qat'iy fikrdamiz", — alohida ta'kidladi prezident.

Mirziyoyevga ko'ra, Birlashgan Millatlar Tashkiloti mintaqaviy xavfsizlik muammosini, avvalo, preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda hal qilishda muhim o'rinni tutishi lozim. Shuningdek, MDH, SHHT, YeXHT va boshqa

nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash zarur.

Shu o'rinda Markaziy Osiyoda barqaror va izchil taraqqiyotning istiqbollari qo'shni Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlab o'tildi.

O'zbekiston rahbari birinchi galda Afg'onistonning mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga qo'shilishiga har tomonlama ko'maklashish kerakligi va bu dunyo hamjamiyatining Afg'onistonda tinch taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlariga g'oyat muhim hissa bo'lib qo'shilishini qayd etdi.

Mirziyoyev BMTda diniy bag'rikenglik to'g'risidagi rezolyutsiyani qabul qilish taklifini kiritdi.

Shuningdek, O'zbekiston bundan keyin ham bu qo'shni mamlakatni iqtisodiy jihatdan tiklash, uning transport va energetik infratuzilmasini rivojlantirish, milliy kadrlar tayyorlash jarayonlarida faol ishtirok etishini ta'kidladi.

Markaziy Osiyoda barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlashning ustuvor yo'naliishi — ekstremistik g'oyalarga qarshi qat'iy kurashishdan iboratdir. Ko'pincha hayotga yendi qadam qo'yayotgan yoshlar uning ta'siriga tushib qolmoqda.

Markaziy Osiyo — aholining yoshi bo'yicha eng "yosh" mintaqalardan biridir: bu yerda aholining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etadi va bu dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqoridir.

Aynan shu maqsadda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yaqinda Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan sessiyasida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish hamda "Mahrifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi.

"Ushbu tashabbuslarni Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari qo'llab-quvvatlagani yoshlar o'rtasida radikal qarashlar tarqalishining oldini olish, to'g'ri yo'lidan adashganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ularni sog'lom hayotga qaytarishga tayyorligimizning amaldagi yaqqol ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bizning tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, birinchi galda yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga islam dinining insonparvarlik mohiyati, islam madaniyatining asl qadriyatlarini yetkazish ekstremizmga qarshi kurashishning eng samarali vositasi hisoblanadi.

Bu borada biz Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etishga qaror qildik", — qayd etdi Mirziyoyev.

To'rtinchi taklif: "Chegara diplomatiyasi"

Mirziyoyev davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini tezda va uzil-kesil yakuniga yetkazish kerak, deya qayd etdi.

O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston TIV rahbarlari tarixiy hujjatni imzoladilar.

"Biz chegaraoldi muammolarini hal etib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni yanada keng aytirish yo'lida mustahkam poydevor yaratamiz.

Biz davlat chegaralarini delimitatsiya qilish borasidagi muzokaralarda yuzaga keladigan murakkab masalalarni hal etish bo'yicha izchil yo'lga qo'yilgan va bиргаликда chuqur o'ylab amalga oshirayotgan ishlarimizni davom ettirish zarur, deb hisoblaymiz.

Biz oqilona murosa va o'zaro teng almashinuv asosida, o'zaro manfaatlarimizni hisobga olgan holda, bu o'ta dolzarb muammoni tez orada hal etamiz, deb ishonaman", — dedi prezident.

Beshinchi taklif: "suv diplomatiyasi"

O'zbekiston prezidenti o'z nutqida mintaqada suv resurslaridan adolatli foydalanish muammosini imkon qadar tezroq tartibga solish lozimligini ta'kidladi.

"Ishonchim komil, mazkur masalalarni hal etishda mintaqadagi barcha davlatlar manfaatlarini hisobga oladigan xalqaro huquqiy me'yorlar asosida ish olib borish kutilgan samarani beradi.

Alixonov: O'zbekiston transchegaraviy suvlardan adolatli foydalanish tarafdoi.

O'zbekiston BMT tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konventsiyalar loyihibarini qo'llab-quvvatlaydi.

Orol dengizining ekologik halokati bilan bog'liq eng o'tkir muammolarni hal etish ham sa'y-harakatlarimizni birlashtirishni talab etadi. Orol muammosi bizning nafaqat umumiy dardimiz, balki umumiy vazifamizdir.

Mintaqaviy va xalqaro darajada sa'y-harakatlarimizni birlashtirmsdan turib, ushbu tahdidlarga qarshi munosib choralar ishlab chiqsa olmaymiz.

Biz orolbo'yida yuzaga kelgan dolzarb muammolarni hal etish, shuningdek, ijtimoiy muhim ahamiyatga molik loyiha va dasturlarni amalga oshirishga donorlik ko'magini jalb yetish maqsadida Markaziy Osiyo mintaqasining barcha davlatlari faoliyatini yanada faollashtirish zarur, deb hisoblaymiz".

Oltinchi taklif: "Xalq diplomatiyasi"

"Mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtaida madaniy-gumanitar aloqalar, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash lozim. Bu Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlikni jadallashtirishning asosiy shartlaridan biridir.

Mirziyoyev: Maqsadimiz – Markaziy Osiyoni gullab-yashnayotgan mintaqaga aylantirish.

Shu nuqtai nazardan, biz faol madaniy-gumanitar muloqotni davom ettirish, mamlakatlarimizda madaniyat kunlari va turli ijodiy tadbirlarni muntazam tashkil etish, ta'lim va sayyohlik sohasidagi almashuvlarni "xalq diplomatiyasi"ning eng muhim vositasi sifatida rivojlantirish tarafborimiz", — dedi Mirziyoyev.¹

O'zbekiston rahbariga ko'ra, mintaqada do'stlik, hamjihatlik va barqarorlik muhitini mustahkamlaydigan eng ishonchli usuli bu oddiy va ochiq insoniy muloqotdir.

¹ Markaziy Osyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi. uza.uz/oz/politics/markaziyafaf-osiye-davlat-ra-barlarining-birinchi-masla-at-uchra-15-03-2018)

Mintaqa xalqlarining madaniy-tarixiy yaqinligi va uzoq muddatli yaxshi qo'shnichilik munosabatlarining ijobiy tarixi Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida ma'lum bir umumiylikni yuzaga keltiradi. Ko'p jihatdan u, masalan, Shimoliy Yevropa mamlakatlari madaniy va tarixiy birligi modeliga o'xshash. Shu bois, chuqur iqtisodiy va siyosiy integratsiya istiqbollari hali ham uzoq bo'lgan sharoitda madaniy-gumanitar sohada bu jarayonlarni boshlash kerak. Kelgusida bu mintaqaviy integratsiyaga yanada chuqurroq talab paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.¹

Markaziy Osiyo mintaqa davlatlari o'rtasida o'tkazilayotgan amaliy konferensiyalar, forumlar shu kabi bir necha diplomatic aloqalarning barchasi ushbu davlatlarning gullab-yashnashi uchun amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlardan biridir va kelgusida Markaziy Osiyo davlatlari kuchli ittifoqdosh davlatlardan tarkib topgan huduga aylanishi uchun harakat qilinmoqda.

¹ Остона учрашуви Марказий Осиё учун янги – Россиясиз давр бошланганидан дарак бермоқда.
http://central.asia-news.com/uz-Cyr1/articles/cnmi_ca/features/2018/03/19/feature-01

Xulosa

Markaziy Osiyodagi mintaqaviy geosiyosiy hodisalar va jarayonlar turg'un emas. Ular jahoning boshqa mintaqalariga qaraganda jo'shqinroq rivojlanmoqda. Baholar, xulosalar tez eskirmoqda va ularga muttasil aniqlik kiritish, o'zgarayotgan vaziyatga solishtirish zarur. Tashqi kuchlar siyosati va ularning mintaqadagi voqealarga ta'siri darajasi ham o'zgarib bormoqda. Markaziy Osiyo rivojlanishining ichki omillarida ham o'zgarishlar ro'y bermoqda. Shu munosabat bilan mintaqqa muammolarini keng miqyosda va sistemali tadqiq qilish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo muammolari mintaqaning o'zidan ko'ra ko'proq undan tashqarida joylashgan mamlakatlarda qizg'in tadqiq qilinmoqda. Bu tadqiqotlarning sifati va mukammallik darajasiga ta'sir etmay qolmayapti. Ayni vaqtida, Markaziy Osiyoning mintaqaviy muammolarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Geosiyosiy hodisalar va tendentsiyalar tahlili Markaziy Osiyo mamlakatlari birlashishining barqarorligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Mintaqaning muhim masalalariga nisbatan baholar va yondashuvlarni yaqinlashtirmsdan yaqin davlatlararo mintaqaviy hamkorlik to'g'risida so'z yuritish mumkin emas.

Xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlarni tahlil qilish Markaziy Osiyoga oid tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim. Xalqaro xavflarning birontasini ham alohida olingen bir mamlakat doirasida aks ettirish mumkin emas. Muvoqiflashtirish va yaqin hamkorlik xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik kabi xavflarning ildizlari, omillari va ko'rinishlarini fundamental va amaliy tadqiq qilishga asoslanishi lozim.¹

Barqaror iqtisodiy rivojlanish Markaziy Osiyo taraqqiyotining muhim shartidir. O'z-o'zidan ravshanki, mintaqqa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining sur'atlarini oshirish, ular jahon xo'jalik aloqalariga keng miqyosda qo'shilishini ta'minlash asosan umummintaqaviy geoijtisodiy muammolarning hal qilinishi va yirik davlatlararo loyihalarning amalgalari.

¹ САФОЕВ С.С. МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ ГЕОСИЁСАТ. "ПАТЕНТ ПРЕСС" –Т.:2005 – 154-155 бет

oshirilishiga bog'liq. Shu sababli Markaziy Osiyoga oid tadqiqotlar faqat muammoni ko'tarish bilan cheklanmay, mintaqaviy dasturlarni amalga oshirishni texnik-iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy va moliyaviy ta'minlash masalalarini ishlab chiqish mexanizmini ham taklif qilishi lozim. Nihoyat, ko'p taraflama aloqalar hamkorlikning qonunchilik bazasini takomillashtirishni taqozo yetadi. Markaziy Osiyoga oid tadqiqotlarning huquqiy masalalari mintaqani tadqiq qilishning muhim jihat bo'lib, uni shakllanish bosqichidan muvaffaqiyatli o'tgan boshqa integratsion tuzilmalar, avvalo, Yevropa Ittifoqi normativ bazasining rivojlanishini qiyosiy tahlil qilish yo'nalishida olib borish zarur. Markaziy Osiyoga oid tadqiqotlar mintaqaning har bir mamlakatida olib borilishi lozim va, o'z-o'zidan ravShanki, olib boriladi. Bunda mamlakatlararo tadqiqotlar uchun zamin yaratish lozim. Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti tuzilmalari ularni tashkil qilish, mablag' bilan ta'minlash va amalga joriy yetish uchun eng tabiiy baza bo'ladi deb o'ylaymiz. Bugungi kunda Markaziy Osiyoda strategik nomuayyanlik yuzaga kelgani qayd yetilmoqda. Insoniyat tarixida doim muhim rol o'ynab kelgan bu muhim mintaqaning rivojlanish tendentsiyalari va istiqbollariga aniqlik kiritish Markaziy Osiyoga oid tadqiqotlarning dasturiy vazifasidir.

O'zbekistonning mintaqadagi rolini tahlil qila turib I.A. Karimov uning dunyodagi eng boy mamlakatlar safiga kirishi bu yerdagi qulay iqlim, nihoyatda katta mineral-xom ashyo resurslari, strategik materiallar va qishloq xo'jalik xom ashvosining katta zaxiralari mavjudligi bilan bog'liq deb ta'kidlagan edi. «Markaziy Osiyoda jo'g'rofiy-siyosiy jihatdan markaziy o'rinn tutgan O'zbekiston, - deb yozgan edi u, - kuchlar teng ligi va muvozanatini ta'minlash, strategik muhim bo'lgan Ushbu mintaqada hamkorlikka mustahkam zamin yaratish jarayonida sezilarli rolg' o'ynash uchun hamma imkoniyatlarga ega».¹

Ko'rsatilgan omillar majmui O'zbekistonning mintaqadagi nafaqat mavqeini, balki Markaziy Osiyodagi holat uchun uning alohida mashuliyatini ham belgilaydi. Yuqorida zikr etilgan demografik, geosiyosiy va geoijtisodiy omillarga ko'ra, bu

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликга таҳдид, барқарорлик шартлари ва тарақкиёт кафолатлари. - Тошкент, «Ўзбекистон», 1997. 228-б.

mamlakat mintaqadagi har bir davlat va butun Markaziy Osiyo barqaror rivojlanishidan ko'proq darajada manfaatdordir. Ko'p jihatli mintaqaviy hamkorlikning muvaffaqiyatlari rivojlanishi avvalo O'zbekiston manfaatlariga mos keladi. Ayni vaqtda, aynan O'zbekiston o'z o'rni va mavqeiga ko'ra Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlarining borishiga hammadan ko'proq ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Markaziy Osiyo markazida joylashgan O'zbekiston mintaqasining barcha mamlakatlari bilan tutash. Bundan tashqari mintaqadagi deyarli barcha kommunikatsion-transport infrastrukturasi, aloqa va energetik tizimlar O'zbekiston hududida joylashgan. Bu hol O'zbekistonning geosiyosiy holatini belgilab beradi.

Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy va tashqi siyosiy tamoyillaridan o'ziga xoslik va farqlariga qaramay, ularni hamkorlikka undovchi ma'lum ob'ektiv holatlar mavjud. Bular-avvalo xavfsizlik, iqtisodiyot va ekologiya masalalari bilan chambarchas bog'liq, bu borada bugungi kungacha ko'plab mavzudagi amaliy diplomatik munosabatlar mintaqa davlatlari o'rtaida olib borilmoqda. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, chetdagi davlatlar manfaat va maqsadlarga va bu borada o'zaro raqobatlari Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligiga, ularning jahon hamjamiyatiga kirish jarayoniga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Hududiy mansublikdan kelib chiqqan holda yangi mustaqil davlatlar bir-biri bilan uzviy tarzda bog'liq bo'lib, transport infratuzilmasi, energota'minot masalalari ekologiya, xom-ashyoni qayta ishlash masalalari yuzasidan uzoq muddatli dastur va loyihalarni ishlab chiqishni talab etadi. Boz ustiga narkotik va qurol-yarog' savdosi kabi jinoiy unsurlarga qarshi kurash bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur jarayon borasida quyidagilarni tahlil qilish mumkin:

Buyuk Ipak Yo'lining qayta tiklanishi.

Ijobiy tomoni – mintaqaga istiqbolida savdo-transport borasida Yevropa, Yevroсиyo iqtisodiy ittifoqligini Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan bog'lashda muhim ahamiyatga ega va ushbu harakatlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonning salbiy tomoni transport infratuzilmasini yetarli darajada

taraqqiy etmaganligi, bunda mintaqqa davlatlari hamkorligi orqali dunyo standartlariga mos ravishda loyihalarni ishlab chiqishlari lozim.

Yuksak darajada Integratsiyalashgan Markaziy Osiyo mintaqasi - jahon siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsata oluvchi hamdo'stlik va konfederatsiya shaklidagi qudratli davlat yuzaga kelishi, bu borada ham o'tgan ikki yil mobaynida juda katta ishlar amalga oshirildi va hozirda mintaqqa davlatlari o'rtasida o'zaro hamkorlik savdo-sotiq masalalari bo'yicha turli loyihalar imzolanmoqda. Salbiy tomoni-integratsiyaviy jarayonlar mexanizmi mukammal ishlab chiqilmagan holatda tashqi omil ta'sirining kuchliligini kuzatish mumkin, ya'ni boshqa bir davlatlarning, tashkilotlarning aralashuvini vujudga keltiradi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yhati.

I. Rahbariy adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. -Т.: “Ўзбекистон”, 1992.
2. Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. -Т.: “Ўзбекистон”.1996.
3. Каримов И. А. Ўзбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура, 1 - жилд.-Т.: “Ўзбекистон”, 1996
4. Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. -Т.: “Ўзбекистон”,1996.
5. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари, тараққиёт кафолатлари. – Т.: “Ўзбекистон”,1997.
6. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби, 5-жилд. -Т.: “Ўзбекистон”, 1997.
7. Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.: “Ўзбекистон”, 1998.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. –T.: “O’zbekiston”, 2000. –525 b.
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T.9. –T.: “O’zbekiston”, 2001. –439 b.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. –T.: “O’zbekiston”, 2002. –432 b.
11. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. -104 б.
12. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. -488 б.
13. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. -32 б.

14. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017. –32 б.
15. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг (бешта устивор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий услугбий рисола. -Т.: “Маънавият”, 2017.

II. Asosiy adabiyotlar:

1. Абазов Р. Геополитическая и геоэкологическая Трансформация Центральный Азии Европы: сравнительны анализ// Саясат. –1995. –№7. – С.233.
2. Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. – Ташкент: Шарқ, 2005.-56 с.
3. Бзежинский З. Великая шахматная доска господства Америки и её геостратегический императвы. – М.: Международный отношение, 1998.
4. Гейден Г. Критика немецкой геополитики. –М.: Прогресс, 1960.
5. Гумилев Л.И. Древняя Русь и Великая степь. –М.: Прогресс, 1989.
6. Дугин А. Основы геополитики. –М.: Арутогея, 1997. –С. 364
7. Jakobson D. Nations, New World. Conception of World Order. –Boulder: Westwived Press, 1994. –P.214.
8. Жалилов А. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. Маъruzalар матни. Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия Университети. -Тошкент: 2002.
9. Жалилов А. ЕВРООСИЁ СТРАТЕГИК МУВОЗАНАТИ (геосиёсий таҳлил тажрибаси) –Т.:2006 – 89 бет
10. Жуманиёзов Х.С. ва Нигманова У.Б. Геосиёсат асослари (услубий қўлланма) –Т.:2016 – 153 бет
11. Жўраев С. ва бошқалар. Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, ҳавфсизлик). Ўқув қўлланма –Т.: «Академия», 2006.

12. Ибатуллин С.Р., Ясинский В.А., Мироненков А.П. Влияние изменения климата на водные ресурсы в Центральной Азии. Отраслевой обзор. Евразийский Банк развития, 2009. – С.289.
13. Калонов Б.Х. «Марказий Осиё иқтисодий ва ижтимоий географияси» (услубий қўлланма)–Н.:2015 – 50 бет
14. Маманазаров М. Ўзбекистонда сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва уларнинг экологик муҳофазаси // Экология хабарномаси. - Тошкент, 2006. - №11. -134 b.
15. Наратов М. Геополитика. Учебник для вузов. –М.: ЮНИТИ, 1999.
16. Сафоев С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. “Патент пресс” –Т.: 2005.
17. Тараққиёт ва ҳамкорлик йўлларида: Ўзбекистон ташқи сиёсати ва дипломатияси. –Т.:Ўзбекистон, 1993.
18. Тихонравов Ю.В. Геополитика. Учебное пособие. –М.: Бизнес школа интел-Синтез, 1998.
19. Тойнби А.Дж. Постижение истории. Москва, Издательство «Прогресс», 1991. - С.557
20. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций и переустройство мирового порядка // "Полис", 1994.
21. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. –М.: Полис, 1994.
22. Чжен Кун Фу. Геополитика Казахстана. -Алматы: Жеты Жарғы. 1999.

III. Davriy matbuot nashrlari

1. Karimov I.A. BMT sammitining Mingyillik rivojlanish masalalariga bag'ishlangan yalpi majlisida so'zlangan nutqi // Xalq so'zi. – 2010. -22 sentyabr.
2. Джакффе Э. Распечатать богатства: энергоносители и будущее Центральной Азии и Кавказа // Центральная Азия 2010. Перспективы человеческого развития. Обзор Регионального Бюро Европы и СНГ, ПРООН.- Ташкент, 1997. - С.29.

3. Суюмбаев М., Мамытова А. Природные ресурсы как фактор развития Центральной Азии // Центральная Азия и Кавказ.- 1998. - № 1.- С.-35.

V. Internet materiallari:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтган “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-sama-10-11-2017>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-2017>
3. Шавкат Мирзиёев Марказий Осиё давлатлари учун муносиб келажакни таъминлашнинг олтида йўналишини маълум қилди.
<http://wwwazon.uz/content/views/shavkat-mirziyoev-markaziy-osiyo-davlatl>
4. Барра Ж. Геополитика водных ресурсов в Узбекистане: взгляд французского географа.
www.cawater-info.net/6wwf/conference.../papers.htm
5. Белокреницкий В. Геополитическая вертикаль в сердце Азии // Pro et contra. Весна 1997. Т.2. Распад и рождение государств.
<http://pubs.carnegie.ru/p.&zc/vol2-1997/2F.default.asp?n-08belokren.asp20>
6. Давлетов С.Р. т.ф.н.,доцент. Марказий Осиё миңтақасида сув ресурсларидан фойдаланишнинг трансчегаравий масалалари.
<http://uz.denemetr.com/docs/769/index-31540-1.html> 12.07.2013
7. Население Узбекистана превысило 32,3 млн человек.
<https://www.gazeta.uz/ru/2017/08/07/demography/> 07.08.2017.
8. Orolbo`yi mintaqasining ekologik muammolari.
<http://geografiya.uz/ekologiya/120-orolboyi-mintaqasining-ekologik-muammolari.html> 11.04.2015.
9. O‘zbekiston aholisi.
https://www.wikizero.com/uz/O%CA%BBzbekiston_demografiysi 07.08.2017.

10. Markaziy Osiyo mamlakatlari. <http://geografiya.uz/10-sinf-geografiya/11257-markaziy-osiyo-mamlakatlari.html> 17.10.2017.
11. Urbanizatsiya jarayonining global va regional jihatlari. <http://geografiya.uz/10-sinf-geografiya/11314-urbanizatsiya-jarayonining-global-va-regional-jihatlari.html> 28.10.2017.
12. Samarqandda Markaziy Osiyoda xavfsizlik bo'yicha forum bo'lib o'tadi. <https://www.gazeta.uz/oz/2017/11/07/forum/>
13. Markaziy Osiyo xalqaro ekologik forumiga tayyorgarlik. <http://uza.uz/uz/society/markaziy-osiyo-xalqaro-ekologik-forumiga-tayyorgarlik--20-02-2018>
14. Марказий Осиё давлат раҳбарларининг биринчи маслаҳат учрашуви. <http://uza.uz/oz/politics/markaziyafaf-osiye-davlat-ra-barlarining-birinchi-masla-at-uchra-15-03-2018>
15. Самарқанд шаҳри Марказий Осиё бўйича халқаро конференцияга мезбонлик қилди. <http://parstoday.com/uz/news/uzbekistan-i25406> 11.10.2017
16. Central Asia. http://en.wikipedia.org/wiki/Central_Asia
17. Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi. <http://uza.uz/oz/politics/markaziyafaf-osiye-davlat-ra-barlarining-birinchi-masla-at-uchra-15-03-2018>)
18. Остона учрашуви Марказий Осиё учун янги – Россиясиз давр бошланганидан дарак бермоқда. http://central.asia-news.com/uz-CyrI/articles/cnmi_ca/features/2018/03/19/feature-01